

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

Gulnoza Mirzayeva

ONA TILI DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM

Ixtisosligi – Ona tili o'qitish metodikasi

Ona tili o'qitish metodikasi magistri darajasini olish uchun magistrlik

DISSERTATSIYASI



Ilmiy rahbar: Ish ko'rib chiqildi va himoyaga tavsiya etildi

_____Q.A.Yunusov,
ped.fan. nomzodi

_____B.M.Rahmonov,
Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrasi mudiri, f.f. nomzodi,
dotsent

Andijon-2010 yil

REJA- MUNDARIJA

Kirish	3
Ishning umumiy tavsifi	4-5
1 bob. Muammoli ta'limning nazariy asoslari.....	
1.1. Muammoli ta'limning ilmiy-pedagogik asoslari	6-16
1.2. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy xususiyatlari	17-39
1-bob bo'yicha xulosalar	40
2-bob. Muammoli ta'limni boshlang'ich sinflarda qo'llas amaliyoti tahlili.	
2.1. Muammoli ta'limni ona tili mashg'ulotlarida qo'llash usullari tahlili...	41-54
2.2. Muammoli ta'lim natijasida o'quvchilar bilimining shakllanish darajasi tahlili.....	55-57
2-bob bo'yicha xulosalar.....	58
3-bob. Ona tili darslarida muammoli ta'limni qo'llash tajribalari.	
3.1. So'z turkumlari ustida ishlashda muammoli ta'limni qo'llash tajribalari	59-70
3.2. Gap bo'laklari ustida ishlashda muammoli ta'limni qo'llash tajribalari...	70-76
Xulosa va takliflar.....	78-79
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	80

K I R I S H

Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida ta'kidlanganidek, "bugungi kunda o'zida ta'lim va tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish dolzarb vazifalardan biridir"¹

Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili ta'limining ahamiyati beqiyos. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartida uqtirilishicha, "ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Bu jarayon hozirgi kun talabiga javob bermasa, boshqa fanlar ta'limiga ham putur yetishi mumkin. Hozirgi kun talabi esa – o'quv jarayonini mukammal isloh qilish, o'quvchi imkoniyatini ro'yobga chiqarish, ta'lim samaradorligini muttasil oshirib borishdir. Bunda, so'zsiz, ta'limning yangi, zamonaviy texnologiyasiga suyanish kutilgan natijani berishi muqarrardir".

Ma'lumki, ona tili maktabda o'quvchining kamol topishida, fikrlash darajasining o'sishida, bilim va mehnatga xavasini uyg'otishda, ilmiy tushunchalarini, nutqiy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tilidan olib boriladigan barcha mashg'ulotlar tizimi shunday qurilishi lozimki, bu tizim o'quvchilarda ona tiliga muhabbat, o'z yurtiga, xalqiga mehr, Vataniga cheksiz hurmat va sadoqatni o'stirishi zarur.

Maktabda o'qitiladigan ona tili fani shunchaki fonetik va grammatik tushunchalarni bir yoqlama shakllantirish vazifasini bajarmaydi, balki o'quvchilarni badiiy til vositalari bilan ta'minlashi, ularda go'zal nutq madaniyatini tarbiyalashi, fikr mulohazalarini ifodali bayon etishga o'rgatib borishi lozim. O'quvchilar har bir ilmiy-nazariy tushunchani amalda qo'llay olishlari uchun ona tili mashg'ulotlarida optimal mashqlar tizimi qo'llanib borilishi shart. Bunda, albatta, an'anaviy usullardan yangicha zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiya shakllariga o'tib ishlash davri keldi. Jumladan, muammoli ta'lim usulining elementar shakllarini qo'llashga e'tibor berish ham zamonaviy texnologiya tarkibiga kiradi. Biz ilmiy tadqiqotimizda ana shu masala bo'yicha fikrlar bildiramiz.

Ishning umumiy tavsifi

Tanlangan mavzuning dolzarbligi – Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limida muammoli ta'limni qo'llash yo'llari haqida aniq bir uslubiy ish yaratilmayapti. Biz muammoli ta'lim va uni boshlang'ich sinflar ona tili darslarida qo'llash yo'llarini izlab topish, ularni tajribadan o'tkazish orqali o'quvchilar bilish faoliyatini o'stirish yo'llarini amalda ko'rsatib berish davri keldi.

Ishning maqsadi: ona tili darslarida muammoli ta'limning yangi variantlarini yaratish.

Ishning amaliy ahamiyati: Muammoli ta'limni qo'llash natijasida boshlang'ich sinflar o'quvchilar tafakkuri keskin o'sadi.

Ishning vazifalari:

Ishni tayyorlashda o'z oldimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

1. Muammoli ta'limning nazariy asoslarini organish.
2. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy xususiyatlarini tahlil qilish.
3. Ona tili mashg'ulotlarida muammoli ta'limni qo'llash amaliyotini o'rganish va tahlil qilish.
4. Soz turkumlari ustida ishlashda muammoli ta'limni qo'llash tajribalarini o'tkazish va tajriba natijalarini tahlil qilish.
5. Gap bo'laklari ustida ishlashda muammoli ta'limni qo'llash tajribalarini o'tkazish va tajriba natijalarini tahlil qilish.
6. O'tkazilgan tajribalar va erishilgan natijalar asosida xalq ta'limi sohasiga tegishli xulosa va takliflarni taqdim etish.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti

Tadqiqot ob'yekti – Andijon shahridagi 5-, 8-, 35- maktablari va Andijon tumanidagi 36- umumta'lim maktabining boshlang'ich sinflari, predmeti – 3-4-sinflarda so'z turkumlari va gap bo'laklari mavzulari ustida ishlash jarayoni.

Mahalliy va chet el adabiyotlarida mavzuning o'rganilganlik darajasi

Mavzu, asosan, rus tili o'qitish metodikasida va O'zbekiston Respublikasidagi oliy o'quv yurtlari, T.Qori Niyoziy nomidagi Respublika pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika universiteti olimlari tomonidan muayyan darajada o'rganilgan.

Ilmiy tadqiqotning olib borilish uslubi:

Dissertatsiyani tayyorlash va ilmiy-tadqiqotni olib borishda ona tili o'qitish metodikasining nazariy va empirik metodlaridan foydalandik.

Dissertatsiyadagi ilmiy yangiliklar va ularning asoslanganligi:

Dissertatsiyadagi ilmiy yangiliklar Andijon shahridagi 5-, 8-, 31-, 35- umumta'lim maktablari hamda Andijon tumanidagi 36-umumta'lim maktabida amalda qo'llanildi va universitetning pedagogika fakulteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası yig'ilishida muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbiqi:

Tavsiya qilingan texnologiyalar amalda tatbiq etilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining grammatik tushunchalarni o'zlashtirishi osonlashadi va shular asosida ularning og'zaki va yozma nutqiy malakalari yanada mustahkam shakllanadi.

¹ Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. "Boshlang'ich ta'lim jurnali" 1998 yil, 6-son, 12-bet.

I-bob. Muammoli ta'limning nazariy asoslari.

1.1. Muammoli ta'limning ilmiy-pedagogik asoslari.

Jamiyat maktab oldiga maxsus pedagogik vositalar bilan o'quvchilar ijodiy faoliyatini ularning mustaqil bilishlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi.

Olim va o'qituvchilarning harakatlari ta'limning zamonaviy protsessi tashkil qilish usul va qonuniyatlarini bayon qiladi. Gap asosan muammoli ta'limni tashkil etish to'g'risida boradi.

Muammoli ta'lim deganda muammolilik tamoyilini hisobga olib tuzilgan hozirgi zamon ta'lim jarayonini tushunamiz.

Muammoli ta'limni ayrim pedagoglarning vaqtinchalik mashg'uloti deb rad etilgan goh uni ta'limning bir shakli yoki vositasi, ta'limning uslubi sifatida qaralgan. Hozirda esa ko'p pedagoglar muammoli ta'lim g'oyasini qabul qilibgina qolmay, uni amalda qo'llamoqdalar.

Muammoli ta'lim bu mantiqiy fikrlash jarayoni va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llanish qoidalarining tizimidir. Shuning uchun ham u ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini uning umumiy rivojlanishi va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi.

Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay balki undan foydalangan holda muammoli ta'lim bo'lib qoldi.

Ushbu didaktik ishimizda ta'lim jarayonining ko'pgina masalalari keng dalillarsiz bayon qiladi, "chunki ular "Pedagogikaning umumiy asoslari" o'rta maktab didaktikasi va boshqa yangi qo'llanmalarda yetarli darajada batafsil ko'rib chiqilgan."¹

Umumta'lim maktablari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi muhim o'zgarishlarga hamisha o'z munosabatini bildirgan.

Jamiyat taraqqiyotining har bir davri uchun o'qish nazariyasi rivojining darajasi qanday bo'lmasin mos keladi.

Bu o'qish nazariyasida o'quv jarayonini tashkil qilishning muayyan g'oyasi ustun bo'ladi. Odatda bu jarayon maktabning o'zgargan maqsadlarini hisobga oladi. Shuning uchun ham pedagogika tarixi har bir davrda xamma vaqt o'zidan oldingi va keyingi ta'lim turlarining elementlarining saqlagan ta'limning ko'pgina tur va xillarini biladi. Ular dasturlarining mazmuni tarbiya tamoyillari o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishning shakl va usullari ta'lim muddatlari bilan farq qiladi. Bu ta'lim turini aniqlashda o'quvchi bilan o'qituvchining o'zaro munosabati tamoyili, o'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni bayon qilishi yoki bilimga erishishlarida ularning shaxsiy faoliyatlarini uyushtirishi, bilimlarni u qanday bayon qilishi nuqtai nazaridan yondoshamiz.

¹ Maxmutov M. Maktabda problemali ta'limni tashkil qilish. T. "O'qituvchi", 1981, 4-bet.

Ana shu belgiga ko'ra masalan oldingi maktablar dastlab ta'limning tushunilishi qiyin bo'lgan matnlar va qoidalarni yodlashdan iborat dogmatic tipini bilar edi.

Muammoli ta'lim nima degani?

Uning nazariy asoslari qanday?

Bu savollarga to'g'ri javob berish muammoli ta'limni tashkil qilish yo'llarini tushunishga yordam beradi.

“Ta'limni umuman olganda, bu katta avlod tajribasini yosh avlodga o'rgatishdir.”¹ Bu o'rinda tajriba tushunchasi keng ma'noda tirikchilik va ilmiy bilimlar faoliyat usullari ijodiy faoliyat tajribasi ma'naviy boylik ma'nosida qo'llanilayotir. Bu mazmunini berish usullari turlicha bo'ladi. Mazmuniga uning o'rgatish usullariga qarab odatda ta'lim tizimi deb ataladigan ta'limning xilma-xil turlari vujudga keldi. Lekin birgina mazmunning o'zida ta'lim to'plangan tajribaning o'rgatish usullariga qarab o'qituvchi bilan o'quvchibig o'zaro munosabat turlari, ya'ni ta'lim tiplariga qarab farqlanadi.

Ta'lim jarayoni tuzilishining bu tipi va qoidalarini nazariy jihatdan tushuntirishni biz didaktik tizim sifatida mazkur mazmundagi ta'lim jarayonini qanday o'qitishni tushunamiz.

Didaktika ta'lim va maorifning umumiy nazariyasi sifatida jarayonni tashkil qilishning mustaqil nazariyasi tarzida bir necha didaktik tizimlarga ega bo'lishi mumkin.

Muammoli ta'lim o'quvchilarning aqliy harakatlarida tayyor aqliy mashqdan foydalanishida yordam beradi. Muammoli ta'lim o'qituvchidan o'quvchilarning sistematik suratda bilish harakatlarini keltirib chiqaradigan muayyan harakatlarni talab qiladi.

Bu harakatlar yangi tushunchaning mohiyatini ochib beruvchi usulni mustaqil o'rganishi bilan xarakterlanadi.

Muammoli ta'lim bilan an'anaviy ta'lim orasidagi farqni bir ikki holatda ko'ramiz.

Ular asosan maqsad va pedagogik protsessni tashkil qilish tamoyillariga ko'ra farq qiladi.

Tarkib topayotgan ta'lim tipining maqsadi – ilmiy bilish natijalarini o'zlashtirish o'quvchilarni fan asoslari bilan qurollantirish hamda ularda tegishli ko'nikma va malakalarni hosil qilishdir.

Muammoli ta'limning maqsadi ilmiy bilish, bilimlar sistemasi natijalarini o'zlashtirishgina emas, balki bu jarayon natijalariga erishish yo'lini ham o'zlashtirishdir.

O'quvchining mustaqil bilishini shakllantirish hamda uning ijodiy qobiliyatini o'stirishdir.

¹ Maxmutov M. Maktabda problemali ta'limni tashkil qilish. T. “O'qituvchi”, 1981, 14-bet.

“O’qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan izohli-illyustrativ ta’lim asosida o’quvchilarga fandagi tayyor xulosalarni berish yotadi.”¹ Muammoli ta’limni tashkil qilish asosida o’quvchining mustaqil bilishini hislantirish hamda uning ijodiy qobiliyatini o’stirishdir.

Izohli ta’limda o’quvchilarning izlanishli faoliyat elementlari ayniqsa predmet mazmunining o’zi masalani yechishni kuzatishni umumlashtirishni nazarda tutadigan tabiiy matematika sinfidagi predmetlarni o’rganishda istisno qilinmaydi. Biroq o’qituvchitomonidan fandagi tayyor xulosalarni o’quvchilarga yetkazish, xususan ijtimoiy sikldagi predmetlarda ustunlik qiladi.

Muammoli ta’limda ham reproduktiv faoliyatni talab qiladigan masala va topshiriqlarni o’qituvchi tushuntirib berishi va uni o’quvchi tomonidan bajarilishi istisno qilinmaydi. Biroq tabiiy-matematika sikli predmetlarida izlanishli faoliyat tamoyili ayniqsa ustunlikka ega.

Shunday qilib o’quv jarayonini tashkil qilish xarakteri muammoli ta’limning izohli ta’limdan farqi negizida qurilgan. Izohli ta’limda o’qituvchi dalillarni o’zi bayon qiladi, o’zi ularni tahlil qiladi va yangi tushunchakarning mohiyatini tushuntiradi. Yangi teoremlar, qoidalar, qonunlarni aniqlashni o’zi ta’riflaydi. Ko’rinib turibdiki, bu yerda muammoli vaziyatlar yo’q.

Bunda o’quvchilar o’qituvchining tushuntirganlarini tinglaydilar va idrok etadilar hamda yangi bilimlarni esda qoldirish yo’li bilan yangi harakatlarni esa o’qituvchi harakatiga taqlid qilish yo’li bilan o’zlashtiradilar.

Muammoli ta’limda o’qituvchi faoliyati shundan iboratki, u zarur hollarda eng murakkab tushunchalar mazmunini tushuntira borib muntazam ravishda muammoli vaziyatlar vujudga keltiradi, o’quvchilarni dalillardan xabardor qiladi va ularning o’quv bilish faoliyatini shunday tashkil qiladiki, bunda o’quvchilar dalillarni analiz qilish asosida mustaqil ravishda xulosa va umumlashmalar qonunlarni aniqlab ifoda qilishni yoki ma’lum bilimlarni yangi vaziyatlarda mustaqil qo’llanishni yoki nihoyatda borliqni badiiy tasvirlashni o’rganadi, insho yozadi, rasm chizadi.

Natijada o’quvchilarda aqliy operatsiya va harakatlar malakasi bilimlarni amaliyotda qo’llanish malakasi hosil bo’ladi, diqqat, iroda, ijodiy tasavvur, faraz qilish rivojlanadi, yangi bilimlarni kashf qilish hamda gipotezalarni ilgari surish va asoslash yo’li bilan yangi harakat usullarini topish qobiliyati tarkib topadi.

Tabiiyki, yuqorida ko’rsatilgan qoidalarni mutlaq deb bilish to’g’ri emas, chunki o’zlashtirish prosessning harakteriga ta’sir etuvchi boshqa omillar haqida gapirmaganda o’qituvchining o’zi ham har bir o’quvchi ham o’z individualligiga egadir. Shuning uchun ham

¹ Maxmutov M. Maktabda problemali ta’limni tashkil qilish. T. “O’qituvchi”, 1981, 18-bet.

aynan bir mavzuni muammoli o'rganish usullari o'quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlanish va umumta'lim tayyorligi darajasini shart qilib qo'yadigan turli xil variantlarga ega.

Ba'zan an'anaviy ta'lim bilan muammoli ta'lim metodlarini birga qo'shib olib borish haqidagi fikrlarni hal etish mumkin.

Bu ikkala didaktik sistemaning nazariy metodlari diametral qarama qarshi tamoyillarga qurilgan.

Izohli illyustrativ ta'lim bilan muammoli ta'limni amalda keyingi nazariyaning bo'sh rivojlangani uchungina qo'shish mumkin.

Birinchidan o'qituvchi muammoli vaziyatlar vujudga keltirmay hamda o'quvchilar tomonidan ijodiy harakterdagi mustaqil ishlarni tashkil qilmay qanday qilib bo'lsa ham ta'limning samaradorligini ongli ravishda pasaytirib bir predmet doirasida muammoli va muammosiz dars o'tkazadi. Ikkinchidan o'quv rejasi darajasida bir o'qituvchi muammoli o'qitish olib borsa boshqasi izohli illyustrativ o'qitish olib boradi.

Ba'zan bunday farqni belgilash qiyin: metodik jihatdan savodsiz tashkil etilgan muammoli ta'lim ko'p hollarda yaxshi tashkil qilingan izohli-illyustrativ ta'limga qaraganda samarasiz bo'ladi.

Ba'zan muammoli ta'lim ta'limning algoritmlashtirilgan dasturlashtirilgan ta'lim, aqliy faoliyat usullarini bosqichlar bo'yicha shakllantirish bilan yonma-yon qo'yib qarab chiqiladi.

Biroq yuqorida tilga olingan nazariyalar hozircha didaktika tizimiga aylangan emas.

Muammoli ta'lim bir butun ta'lim tipi sifatida ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirish hamda uni nazariy jihatdan asoslash asosida paydo bo'ladi.

U o'ziga algoritmlar, dasturlashtirilgan topshiriqlar, aqliy faoliyat usullarini bosqichlash bo'yicha shakllantirish imkoniyatlarini ham qamrab oladi.

Ayrim pedagoglar muammoli ta'limni pedagogikada ham maktabda ham allaqachondan ma'lum bo'lgan suhbat deb tushunadilar.

Albatta, matematika, fizika, kimyoga doir masalalarni yechish bilan bir qatorda evristik suhbat muammoli ta'limning muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Muammoli savollar masala va topshoroqlar muammolarni ta'riflashning eng universal va samarali shakllari sanalasi.

Biroq muammoli vaziyat, savollar, masalalar, topshiriqlar muammolarni ta'riflashning enf ko'p qo'yilmasdan ham vujudga kelish o'quv materiali bayon qilishning mantiqidan kelib chiqishi mumkin.

Masalan, V sinf bolalari beda gullagandan keyinroq urug' bog'lashini biladilar. Botanika darsida o'qituvchi Yevropadan Avstraliyaga keltirilgan beda gulladi, ammo hosil bermadi degan ziddiyatli dalillarni bayon qilganda muammoli vaziyat hosil bo'ladi.

Bu yerda o'qituvchi tomonidan biror bir savol o'rtaga tashlanmadi. Bu o'rinda savol o'quvchilar oldida o'z-o'zidan vujudga keladi. Nima uchun beda hosil bermadi?

Bu yerda evristik suhbat yo'q, tadqiqot topshirig'i ham yo'q, ammo muammoli vaziyat – dastlabki faol fikrlash bor.

Muammoli ta'lim – bu 20 yillarda e'tirof etilgan hamda hozir ham ba'zi bir kishilar hisoblayotganidek metod emas, bu izlanish xarakteridagi metodlar gruppasi ham emas, balki ta'limning bir butun tipidir.

Ta'limning bu tipi asosida o'quvchilar tomonidan yangi bilimlar va nazorat usullarini o'quv muammolarni hal qilish yo'li bilan o'zlashtirishlaridagi mustaqil tizimli o'quv-bilish faoliyatini xarakterlaydigan o'qituvchi bilan o'quvchi munosabatining asosida turi yotadi.

Muammoli ta'limni bir o'quvchilar tomonidan yangi qonun va qoidalarni mustaqil kashf etishning muntazam zanjiri tarzidaemas, balki ularning ilmiy tushunchalar va usullar sistemasi mantiqiy fikrlash yo'llarini o'zlashtirishga oid reproduktiv va ijodiy faoliyatini optimal qo'shib olib boorish tarzida talqin qilmoqdamiz.

“Muammoli ta'lim tushunchasi uning etimologiyasidan ko'ra ko'proq so'zning mohiyati bilan bog'liq. Gap shundaki, o'quvchilar uchun yangi bilim hamisha muammolidir o'zlashtirish metodlari esa muammoli hamda muammosiz bo'lishi mumkin.

Muammoli ta'lim ta'limning yangi tipi sifatida o'quv jarayonini aktivlashtiradigan o'qituvchi va o'quvchilarning ilgari ma'lum bo'lgan barcha ish usullarini o'z ichiga oladi.

Biroq muammoli ta'lim yana shunday tamoyil qoidalarni ham o'z ichiga oladi.

Bu o'quvchining o'quv faoliyatigina emas balki bilish faoliyatini aktivlashtirishni ham ta'minlaydi.

Izlanishli faoliyat natijasida bilimlarni ijodiy o'zlashtirish ham shakllanadi. Yana eng muhimi, ijodiy faoliyat usullarini o'zlashtirish yuz beradi. Bunday natijada o'quv jarayonini aktivlashtirishni an'anaviy yo'li orqali erishib bo'lmaydi.

Muammoli ta'limning muammolilik va maqsadlilik tamoyillari hisobga olib tuzilgan ta'lim metodlarining sistemasi uning muhim momenti hisoblanadi. Bunday tizim o'qituvchi tomonidan boshqariladigan o'quvchilarning o'quv bilish jarayoni faoliyatini ular tomonidan ilmiy bilimlarni aqliy faoliyat usullarini o'zlashtirilishini ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish dunyoqarashini ta'minlaydi.

Muammoli jamiyat va o'quv muammosi muammoli ta'limning asosiy tushunchasidirki, bu dars berish va ta'lim faoliyatini mexanik tarzdagi majmui emas, balki har ikki faoliyatni dialektik o'zaro munosabatda va o'zaro aloqada ko'rib chiqishdir.

Muammoli dars berishni biz o'qituvchining muammoli vaziyatlar tizimini yaratish o'quv materialini bayon qilish, uni tushuntirish hamda o'quvchilarning yangi bilimlarini ham an'anaviy

ham o'quv muammolarni mustaqil qo'yish va ularni hal qilish yo'li bilan o'zlashtirishlariga yo'naltirilgan faoliyatni boshqarish faoliyati sifatida aniqlaymiz.

Muammoli ta'lim – bu o'quvchilarning o'qituvchi muammoli vaziyat sharoitida tushuntirganlarini idrok qilish yo'li bilan bilim va faoliyat usullarini o'zlashtirishga doir muammoli vaziyatlarni mustaqil analiz qilish, muammolarni ta'riflash va ularni takliflar gipotezalar vositasida asoslash va isbotlash shuningdek yechimlarning to'g'riligini tekshirish yo'li bilan hal qilishga oid o'quv bilish faoliyatidir. O'quvchilarning ana shu barcha aqliy mehnatlari o'qituvchining rahbarligida olib boriladi. Bu esa shaxsning ongliligi va intellectual faolligini tarkib toptirishni ta'minlaydi.

Muammoli ta'lim asosida qanday qonuniyatlar yotadi?

To'g'ri tashkil qilingan o'quv jarayoni o'zining rivojlanish qonuniyatlariga ega. Bu qonuniyatlar asosan ta'lim tamoyillarida yoki didaktik tamoyillarda ifodalangan. Olimlar bilish jarayonini ichki va tashqi xususiyatlarga ajratadilar.

Qaysiki bularning qo'shilishi bilimni bir sifatdan boshqasiga o'tishini ta'minlaydigan ilgarilab boradigan harakatni shart qilib qo'yadi. Bu rivojlanishning harakatga keltiruvchi kuch dialektik xarakterga ega bo'lgan ziddiyat ekani aniqlandi. Bu ziddiyatlar asosida psixik jihatdan o'zib ketadigan aks ettirish hodisasi yotadi.

Bilimlarni muammoli o'zlashtirishda o'quvchi ongli faoliyatining xususiyatlari nimadan iborat?

Psixologiya insonning tafakkur yuritish faoliyatini ikki asosiy reproduktiv hamda ijodiy turga ajratadi.

“Produktiv faoliyatning reproduktiv faoliyatdan farqi shundaki, unda o'quvchi o'zidagi bilimlarni yangi vaziyatlardan muqtaqil qo'llanadi.”¹

O'quvchining faoliyati mulohaza yuritish, fikrlash, aqliy harakat usullarini mustaqil izlanish bilan aniqlanadigan muammoli vaziyatlar sharoitidagi mantiqiy izlanish bilan xarakterlanadi.

Bu aqlning mustaqilligini tarbiyalanishiga namuna bo'yicha algoritm bo'yicha erishish mumkin bo'lmagan faoliyat tajribasining shakllanishiga olib keladi. Chunki bilish jarayonining har bir bosqichida aqliy faoliyat usullarining yangicha boshqarish talab qilinadi.

Faoliyatning psixologik nazariyasi tafakkur yuritishni muammoli vaziyatdan, muammodan boshlanadi deb hisoblaydi.

Muammoli vaziyat – bu insonning yuz bergan hodisani dalilni voqelik jarayonni qanday tushuntirishni bilmaydigan unga ma'lum bo'lgan harakat usullari bilan maqsadga erisha

¹ G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. N. “O'qituvchi”, 1992 y. 52-bet.

olmaydigan paytda usullari bilan maqsadga erisha olmaydigan paytda vujudga keladigan intellectual qiynalishidir.

Bu insonni yangi tushuntirish yo'llari yoki harakat usullarini izlashga undaydi.

Muammoli vaziyat produktiv, ijodiy bilish faoliyatning qonuniyatidir. U fikrlashning boshlanishini shart qilib qo'yadi, aktiv fikrlash faoliyati muammolarni qo'yish va hal qilish jarayonida namoyon bo'ladi.

O'quvchining tushunish uchun materialning soddaroq bo'lishi oddiydan murakkabga qarab borishi ta'limning hayot bilan aloqasining zarurligi va hokazolar o'quvchining muvaffaqiyatli faoliyati uchun sharoitgina xolos.

Insonning muammoli vaziyatlar sharoitidagi produktiv bilish faoliyati bosqichlarining muayyan izchilligi psixologiya fani tomonidan belgilab berilgan muammoli vaziyat $\Rightarrow$ muammo $\downarrow$ uning hal qilish usullarini izlash $\Rightarrow$ muammoni hal qilish.

O'qituvchining o'quvchi o'quv jarayonini bilishga oid faoliyat bosqichlarini hisobga olgan holda tashkil qilishga intilishi bu jarayon mantiqini o'zgartiradi. Ta'limni tashkil qilishning yangi sxemasi yangi tamoyillari paydo bo'ladi. Modomiki, fikrlash insonning muammo bilan to'qnashuvidan boshlanar ekan, muammoli ta'lim asosini o'qituvchi tomonidan sistematik suratda va oldindan o'ylab vujudga keltiriladigan muammoli vaziyatlar tashkil qiladi.

Muammoli vaziyatlarni hosil qilishdan tortib muammoni yechishga bo'lgan aqliy harakatlarning to'liq sikli bir qancha bosqichlarga muammoli vaziyatning paydo bo'lishiga, qiyinchilik mohiyatini anglash va problemani qo'shilishiga faraz qilib yoki taxmin taklif qilish va gipotezani asoslash yo'li bilan muammoni hal qilish usullarini topishga, gipotezani isbotlashga muammoni to'g'ri hal qilinganini tekshirib ko'rishga bo'linadi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini mustaqil deb hisoblash mumkin. Misol tariqasida quyidagi oddiy hodisani 1-sinfda matematikaning yangi qoidasini o'zlashtirishni olaylik. O'quvchilarga $2+6=?$ ko'rinishidagi misol beriladi.

O'quvchilar muammoni ta'riflaydilar, ya'ni bunda keltirilgan misol osonlik bilan hal qilinadi. Bunda o'quvchilar o'zlari muammoli vaziyatni o'zlari tahlil qiladilar hamda hosil bo'lgan qiyinchilik mohiyatini og'zaki ifodalaydilar.

O'quvchilar o'z takliflarini o'rtaga tashlaydilar, ya'ni izlanadilar, muammoni hal qilish yo'llarini topishga urinib ko'radilar yoki ular haqida taxminlarini bayon qiladilar. Endi yuqorida ta'riflangan muammoni hal qilish usullarini topish kerak.

Muammoli ta'lim izchilligi fikrlash jarayonining mantiqi bilan oldindan belgilangan boshlanadigan nuqtasi esa muammoli vaziyat hisoblangan bosqichlarga bo'linadi. O'quvchining muammoli ta'limni tashkil qilishda o'qituvchi faoliyatining xususiyati shundan iboratki, u harakatning asosiy turi ayni vaqtda yangi materialni bayon etish emas, balki muammo hamda

muammoli vaziyatlarga olib keladigan o'quv topshiriqlari bera olishdir. Bu esa o'quvchilarni aqliy harakatga undaydi va ularning mustaqil izlanishli faoliyatini ta'minlaydi. Demak o'quvchining bilish faoliyati reproduktiv va produktiv xarakterga ega.

O'quv vazifasiga bog'liq holda o'quvchi har xil aqliy harakatlarni bajaradi.

O'quv vazifalarini o'zgartirish yo'li bilan masalani va topshiriqlarni qay tarzda qo'yishiga qarab o'qituvchi o'quvchilarni xilma-xil aqliy harakatlarga undaydi. Ammo o'quvchida mustaqil bilish malakasini ijodiy fikrlash malakasini muntazam ravishda shakllantirish uchun o'quvchini qanday harakatlar bilan o'qitish kerak? Birinchi navbatda, taqqoslash, analiz, sintez, mavhumlashtirish, umumlashtirish, sistemalashtirish, xulosalash kabi tafakkur yuritish operatsiyalari malakasini shakllantirish lozim.

Bu mantiqiy operatsiyalar fikrlash jarayonlari mohiyatini tashkil qiladi didaktik metodlarni yaratishda ularni hisobga olish psixologlarga ana shu asosda fikrlashni to'rtta umumiy metodga ajratishlariga yordam beradi: algoritmik, yarim algoritmik, yarim evristik.

Ular asosan produktiv va reproduktiv fikrlashning turli xil birikuvini aks ettiradi.

“Algoritmik metod – bu qat’iy yo’llanma bo’lib degan qoidani shart qilib qo’yadi.”¹

Yarim algoritmik metod – masalani yechilishining to'g'riligini ta'minlaydi.

Yarim evristik metod – masalalar yechishni garantiyalaydi, ammo yechishning bir xilligini ularning muqarrar ravishda to'g'riligini ta'minlaydi.

Evristik metod – yuqoridagi metodlardan farqli o'laroq yechishning o'zini ham ta'minlaydi.

Bilish va psixologiya nazariyasi muammolilik tamoyilining orqali ifodalash mumkin bo'lgan individual bilish jarayonining asosiy qonuniyatlarini ochib beradi.

U o'quvchi fikrining bilmaslikdan bilishga, noaniq, to'liqsiz bilishdan aniqroq va to'liqroq bilishga bo'lgan harakatini ichki mantiqini ifodalaydi.

Ta'limning ilgarigi nazariyasi bu tamoyilni bilmas hamda ta'lim jarayoni voqelikning hodisasi sifatida o'rganishda va uning tuzilish qonuniyatlarini tushuntirishda amal qilmas edi.

¹ Turg'unboyev K., Rizayev A. Zamonaviy pedagogic texnologiyalar. “Andijon”, 2008. 23-bet.

1.2. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy xususiyatlari.

Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini muayyan shaklda loyihalashtirishdir. Yangi pedagogik texnologiya esa an'anaviy dars qurilishini zamonaviy interfaol usul, noan'anaviy shaklda o'ziga xos qayta loyihalashtirishdir. Bu loyiha shuni taqozo etmog'I lozimki, avvallari o'quvchi muallimdan bilimni tayyor holda olgan bo'lsa endilikda mashg'ulotda qo'yilgan turli muammoli topshiriqlarni bajarish asnosida mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish, mantiqiy xulosa chiqarish orqali boshqacha qilib aytganda muayyan darajada mehnat qilib bilim oladi. Shuningdek ko'nikma va malakalar ham mantiqiy fikrlashni talab qilgan mashqlar ta'limiy o'yinlar qiziqarli ijodiy ishlar vositasida hosil bo'ladi.

Pedagogik texnologiyani aniqroq qilib aytganimizda yangi pedagogik texnologiyani ta'limda tadbqiq etishga bir tomondan, ko'pchilik o'qituvchilar jiddiy e'tibor bergan holda muayyan darajada izlanib bormoqdalar, ikkinchi tomondan esa aksariyat muallimlarning mashg'ulotlarda turli noan'anaviy usullarni duch kelgan holda qo'llashlari natijasida mashg'ulotlardagi qat'iy izchillik, tizimlilikka putur yetib, o'quvchilar egallashi shart bo'lgan bilim to'la berilmayapti.

O'qituvchi yangi pedagogik texnologiyani ta'lim jarayonida joriy etishda quyidagi jihatlarga e'tibor berib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

- a) shaxs – o'quvchidagi mavjud imkoniyatlar – diqqati, barqarorlik, aqliy mushohada qila olish, ijodiy izlana olishligi, faollik darajasi, nutqiy malakasini hisobga olish;
- b) O'quv jarayonida muayyan algoritmnini tuzib olish;
- c) O'quv jarayonini mohirlik bilan boshqarish
- d) Loyihani amalga oshirish jarayonida darsning ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarining qay darajada amalga oshayotganini nazorat qilib boorish;
- e) Darsda til imkoniyatlari va turli qo'shimcha vositalar – texnika turlari, musiqa, ertak, topishmoq, maqol, hse'r, rebus, unumli foydalanib boorish.

Turli uslubiy maqola va qo'llanmalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari uchun ularga imkon yaratib berish, o'qituvchi taqdim etgan fikrni muhokama qilish, mantiqiy mulohazalar qilib, tegishli xulosa hukm chiqarish, o'z fikrlarini mustaqil himoya qilish, faol munozaraga kirishishni ta'minlash kabi fikrlar bayon qilinib kelinmoqda.¹ Shuningdek, ta'lim jarayonida modulli ta'lim texnologiyasi hamkorlikda o'qitish texnologiyasi muammoli ta'lim ta'limiy o'yinlar o'tkazish guruh-guruh qilib o'qitish texnologiyalari manzarali chizib berilmoqda.

^{1 1} Turg'unboyev K., Rizayev A. Zamonaviy pedagogic texnologiyalar. "Andijon", 2008. 23-bet.

Lekin yuqoridagi texnologiyalarning barchasini ham boshlang'ich ta'limda tadbiq etib bo'lmaydi. Chunki kichik yoshdagi maktab o'quvchisi hali ta'lim jarayonida ishtirok etish qobiliyatiga ega emas.


Yangi pedagogik texnologiya shuni talab qiladiki dars jarayonida ta'lim-tarbiyada o'quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch ta'lim jarayoni sub'yekti bo'lishi kerak.

O'qituvchi esa o'qitishdan o'qishni o'rganishga, bilim berishdan bilimlarni o'quvchilar mustaqil egallashlariga ko'maklashishi zarur. U o'quvchini ehtiyoj tug'dirishdan muhit yaratishga va undan mas'uliyatni sezishga yo'llashi kerak.

Ma'lumki har bir dars uchun ta'limiy tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlar belgilab qo'yiladi.

Mashg'ulotni tashkil qilish shakli unda qatnashuvchilarning psixologik yosh xususiyatlariga o'quv material hajmi va mazmuniga ta'lim usullari va bolalarning imkoniyatiga qarab loyihalashtiriladi.

Hozirgi pedagogika fanida o'quv jarayonining asosiy komponentlari quyidagicha belgilanadi.



Yuqoridagi sxema mohiyati shuki, ta'limda, aniqroq qilib aytganda yangi pedagogik texnologiyada ichki motivatsiya o'quvchilar diqqatini tortish, ichki tuyg'uni hosil qilish, istak, zarurat, mas'uliyat va ehtiyojni shakllantirishdan kelib chiqqan holda darsni boshqarish lozim.

Necha o'n yillardan beri boshlang'ich ta'limda ham, umumiy o'rta ta'limda ham darsdagi asosiy bosqichlar an'anaviy tarzda olib borildi. Keyingi yillarda bu bosqichlarning qat'iy izchillikda bo'lishi, har bir bosqichning o'ziga xos qat'iy qolipga tushib qolishi ta'lim samaradorligiga putur yetkaza bordi mashg'ulotlarning zerikarli, o'quvchilarning loqaydligiga javob bo'ldi. "Natijada sinf jamoasidagi interfaollikning yo'qolishi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash tarzidagi ojizlik holatlari yuzaga keldi."¹ O'quvchilar unli-undosh, jarangli-jarangsiz tovushlar farqini Grammatik tushuncha mohiyatini so'z turkumlari bilan gap bo'laklari tafovutini bilmaydigan holatga kelishgan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyani amalda qo'llashda shunga e'tibor berish lozimki, o'quvchilarni mantiqiy obrazli fikrlashga o'rgatish ularni muntazam ravishda faollashtirib boorish lozim. Yana shunga e'tibor berish joizki, yangi texnologiyani takomillashtirishda

¹ Yunusov Q. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslari. "Lider-press". T. 2009. 6-bet

dialektikaning o'ziga xos qonuniyatlari hamda o'quvchilarning psixologik xususiyatlariga asoslanish talab etiladi.

O'qituvchi mashg'ulotni loyihalashda pedagogik texnologiya tamoyillariga jiddiy rioya qilishi lozim.

Jumladan qaytuvchan aloqa – o'quvchiga axborot berib, undan ham axborot olishqaytuvchan aloqa jarayoni va nazoratning birligi har bir o'quvchi uchun maqbul bo'lgan o'quv materialini tanlash tamoyillari o'qitish samaradorligini belgilashi. Shuningdek, o'qitishda o'quvchi har bir mashg'ulotda huddi imtihondagidek harakat qilishi o'z nazorat faoliyati natijasini vaqtida bilishi, shu bilan birga o'quvchining yutug'iga o'qituvchining munosabati yoki o'quvchining kamchilik va xatolariga o'qituvchining munosabati masalalari ham zamonaviy pedagogik texnologiya qoidalari sifatida o'qituvchi diqqat markazida bo'lishi shart.

An'anaviy dars strukturasi tarkibida tashkiliy qism uy vazifasini tekshirish, o'tilgan mavzu yuzsidan suhbat.

Yangi mavzu ustida ishlash, yangi bilimlarni mustahkamlash, uyga vazifa berish va darsni yakunlash bosqichlari mavjud edi.

Hozir ham ko'pchilik o'qituvchilar ana shu bosqichlariga amal qilib, ta'lim jarayonini tashkil qilib bormoqdalar.¹

Biroq, kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, mana shu doimiy bir xillik o'quvchilarda moslashuv holatini yaratibbu bosqichlar ularning faoliyatini qo'zg'otmay qo'ydi. Natijani yaxshilash uchun esa pedagogik texnologiyadan foydalanish samaralidir.

Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda asosiy vazifa – muammoli o'qitish usulidan foydalanish.

Ma'lumki, izlanishga asoslangan har qanday faoliyat sermahsul faoliyatdir. O'quvchi ona tili materiallarini tayyor holda o'zlashtirmay, uni izlasa, faol ijodiy faoliyat ko'rsatsa, o'zlashtirish jarayoni samarali bo'ladi. Muammoli ta'lim ana shunday izlanish va ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Bu usul shaxs va uning intellektual aktivligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

«Muammoli ta'lim» tushunchasi pedagogik adabiyotlarda garchand keyingi yillarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, ammo izlanuvchanlikka asoslangan o'qitish g'oyasi ming yildan ortiqroq tarixga ega.

SHarq mutafakkirlari bilish – izlanish mahsuli ekanligini alohida qayd qilgan edilar. O'rta asrning buyuk entsiklopedisti Abu Ali ibn Sino (980 – 1037) o'zining «Donishnoma» asarida qiyinchiliklarni yengish orqali bilimlarni

egallashning afzalligini ko'rsatgan edi. Umar Xayyom (1042 -1112) «Matematik traktatlar»ida bilish uchun fikrlash zarurligiga, qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o'ylash zarurligiga da'vat etadi. Al Tusiy (1201 – 1274) esa bilimlarni puxta egallash uchun mustaqil ishlashning zarurligini alohida qayd qiladi. Bu g'oya keyinchalik evristik ta'lim nazariyasiing yuzaga kelishiga asos bo'ldi. XIX asrning 70- yillarida Rossiyada yashagan bir guruh tilshunos-olimler (TS.P.Balʼtalon, M.L.Rybnikova) evristik ta'lim nazariyasini ko'tarib chiqib, o'quvchilarni mustaqil ishlatish yo'li bilan ularni faollashtirishga erishish mumkinligini asoslab berdilar.

Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan. Ijodiy qobiliyatlarni o'stirishga qaratilgan ta'lim esa rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib sanaladi. Muammoli ta'lim ana shu fikrlash qobiliyati va bilish ehtiyojini vujudga keltiradigan asosiy vosita sanaladi.

Muammoli o'qitish yo'li bilan o'quvchilar faoliyatini faollashtirish bilimlarni tayyor holda berish orqali ular faoliyatini faollashtirishdan farq qiladi. Muammoli ta'lim yo'li bilan o'quvchini faollashtirish natijasida biz uning muayyan bir sistemada fikrlashira erishamiz. Bunday faollikning o'ziga xos xususiyati shundaki: «... o'quvchi faktik materiallarni analiz qilib, qiyoslab, sintez qilib, umumlashtirib, konkretlashtirib undan o'ziga yangi axborot oladi»².

Izlanuvchanlikka asoslangan faoliyat muammo yaratish, muammoli vaziyatni vujudga keltirish bilan boshlanadi. Yaratilgan qiyinchilikni yengish uchun o'quvchida mavjud bilimlar yetishmay qoladi. U noma'lum bilimlarni egallash uchun izlanishga, ijodiy faoliyat ko'rsatishga majbur bo'ladi. Izlanish o'quvchida faollikni vujudga keltiradi.

Ona tili darslarida muammoli ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish orqali biz o'quvchilarni mantiqiy-lingvistik ish usullarini muvaffaqiyatli bajarishga o'rgatamiz; ularni aqliy hamda amaliy faoliyat usullari bilan qurollantiramiz; tilning qonun-qoidalari hamda so'z, so'z birikmasi, gap va matn bilap mustaqil ishlash ko'pikmalarini singdiramiz; til xususiyatlari va uning qonunlarini ijodiy o'zlashtirish va uni yozma hamda og'zaki nutqda ijodiy qo'llash malakalarini shakllantiramiz.

Muammoli ta'lim o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Ijodiy tafakkur esa o'quvchilarga noma'lum bo'lgan til xodisalarini bilib olish

¹ Yunusov Q. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslari. "Lider-press". T. 2009. 9-bet

² Maxmutov M.I. Maktabda problemali ta'limni tashkil qilish. Toshkent, 1981, 15-bet.

jarayonini faollashtiradi; egallangan bilimlarinng puxtaligini ta'minlaydi; o'quvchilarning til materallariga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Ijodiy tafakkur, shubhasiz, ijodiy izlanish mahsuli bo'lib, u muammo yoki savol ko'yish bilan boshlanadi. Bu esa muammoli vaziyatni vujudga keltiradi.

Ona tilida bunday vaziyat quyidagi hollarda yuzaga keladi:

— tilning konun-qoidalari to'g'risidagi yangi ma'lumotlar o'quvchilarga noma'lum bo'lib, uni izohlash uchun mavjud bilimlar yetishmay, ma'lum qiyinchilikni bartaraf etishga to'g'ri kelganda;

— ona tilidan egallangan bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash zaruriyati tug'ilganda;

— muammoli topshiriq bilan uni bajarish usuli o'rtasida ziddiyat (nomuvofiqlik) paydo bo'lganda.

Ona tili darslarida muammoli vaziyat yaratishning usullari ham xilma-xildir. Biz ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalari va shaxsiy tajribalarimizga asoslanib, ona tilidan muammoli vaziyat yaratishning quyidagi usullarini tavsiya qilamiz.

1. Tilga oid dalillarni tahlil qilish asosida muammoli vaziyat yaratish. Ayniqsa, til faktlarini kuzatish tahlilning samarali shakli sanaladi. Bu usul yordamida muammoli vaziyat yaratish uchun o'quvchilardagi mavjud bilimlarga asoslanib, noma'lum muammoni aniqlashni ularning o'zlariga topshiramiz. Masalan, "Nutq tovushlari va ularning hosil bo'lishi" mavzusini o'tishda quyidagi topshiriqlarni o'quvchilar hukmiga havola etish mumkin.

1. Har biringiz nutq tovushlarini hosil qilib ko'ring.

2. Nutq tovushlarini aytishda qaysi nutq a'zolaringiz faol ishtirok etadi?

«Unli va undosh tovushlar»ni o'tishda kuzatishga asoslangan quyidagi topshiriqlar samarali natija ko'rsatadi:

1. Unli va undosh tovushlarni alohida-alohida aytib ko'ring. Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezyapsiz?

2. 6 ta unli harf ishtirok etgan so'z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko'ring. Qanday o'zgarishni sezyapsiz?

«Jarangli va jarangsiz undoshlar» mavzusini o'tishda biz quyidagi topshiriqlardan foydalandik:

Undosh tovushlarni talaffuz etib ko'ring. SHovqin va ovozdan hosil bo'lgan undoshlarni alohida, faqat shovqindan hosil bo'lgan undoshlarni alohida yozing.

Kuzatishga asoslangan bu savol va topshiriqlar muammoli vaziyatni vujudga keltiradi.

Ona tili darslarida, ayniqsa, badiiy asar tilini kuzatish, tahlil qilish natijasida yaratilgan muammoli vaziyat o'quvchilarda juda katta qiziqish uyg'otadi. O'qituvchi ma'lum bir badiiy asardan olingan parchani o'qitib, ular diqqatini tilning noma'lum tomonlariga qaratadi. Masalan, o'quvchilarni «Eskirib qolgan so'zlar» mavzusi bilan tanishtirar ekanmiz, muammoli vaziyat yaratish maqsadida Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasidan olingan parchani o'qish va ma'nosi tushunarli bo'lmagan so'zlarni ko'chirib olishdan ishni boshlaymiz. O'quvchilar matndan mingboshi, ellikboshi, amin, tilmoch, pristav singari so'zlarni daftarlariga ko'chirib oladilar. Bu so'zlarning ma'nosi nega o'quvchilarga tushunarli emasligi so'raladi. Ular bu so'zlarning 1917 yildan oldin qo'llanilganligi, hozirgi paytda esa bu so'zlar tamomila iste'moldan chiqqanligini aytadilar. Kuzatish va badiiy asar tilini tahlil qilish natijasida quyidagi muammo vujudga keladi:

Sizningcha, qanday so'zlarga eskirib qolgan so'zlar deb aytish mumkin? Har bir o'quvchi kuzatishlaridan foydalanib, eskirib qolgan so'zlarga mustaqil ravishda ta'rif izlaydi.

2. Til materiallarini sintez qilish asosida ham muammoli vaziyat yaratish mumkin. O'qituvchi tahlil natijasida hosil bo'lgan tushunchalarga asoslanib, mustaqil xulosa chiqarishni o'quvchilarning o'zlariga havola etadi. Bu usul bilan muammoli vaziyat yaratishning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchi mayda faktlardan umumiy xulosa chiqaradi. Sintetik usul o'quvchilarning o'z faoliyatini faollashtirishga imkoniyat yaratadi. O'quvchi mayda faktlardan umumiy xulosa chiqarar ekan, o'z oldiga maqsad qo'yish va uni mustaqil hal qilish choralarini izlaydi.

Sintetik usul bilan muammoli vaziyat yaratish orqali qoida chiqarish ona tilining ongli o'zlashtirilishini ta'minlaydi va o'quvchilarning faol fikrlash faoliyatini vujudga keltiradi.

3. Til faktlarini qarama-qarshi qo'yish va taqqoslash orqali muammoli vaziyat yaratish. Buyuk pedagog K. D. Ushinskiy taqqoslash har qanday tushuncha va har qanday fikr yuritishniig asosi ekanligini alohida ko'rsatib o'tgan edi.

Ma'lumki, ona tilidan ko'pgina mavzular tashqi jihatdan bir-biriga o'xshash bo'lib, taqqoslash usuli bilan ularni o'rganish yaxshi natija ko'rsatadi. O'qituvchi fonetikadan unli va undosh harflar, tovush va harf so'z turkumlaridan ot va sifat va fe'l, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar; sintaksisdan ega va undalma kabi mavzularni o'tishda ularning tashqi jihatdan bir-biriga juda o'xshash belgilarini hisobga olib, muammoli vaziyat yaratishi mumkin. Masalan, o'quvchilar ko'pincha ega va undalmani bir-biridan ajratishda qiynaladilar. Buning asosiy sababi shubhasiz, ulardagi o'xshash belgilardir. «Undalma» mavzusini o'tishda o'qituvchi o'quvchilarning ega haqida olgan bilimlariga asoslanib, taqqoslash usuli bilan quyidagi topshiriq yordamida muammoli vaziyatni vujudga keltiradi.

Berilgan gaplarni taqqoslang: 1. Ega bilan undalmaning o'xshash tomonlarini toping. 2. Undalmaning egadan farqini aniqlang.

Bolalar — bizning kelajagimiz.

SHamol mayin maysalarni sekin
tebratardi.

Bolalar, sizlar Vatanimizning
kelajak avlodisiz.

SHamol, qudrating bilan bulutlarni
quvlaysan.

Yuqoridagi gaplarni taqqoslash natijasida o'quvchilar muammoni — undalmaning egadan farqini — mustaqil ravishda aniqlaydilar va undalmaga ta'rif topishga harakat qiladilar.

4. Simvolik tasvirlardan foydalanib, muammoli vaziyat yaratish. O'quvchilar o'rganilgan til materiallarini yangi holatda — simvolik tasvir bilan ko'rsatishlari mumkin. Masalan, undalmali gaplarda tinish belgilarining ishlatilishiga oid yangi ma'lumotlarni, o'quvchilar simvolik tasvirlardan foydalanib o'rganishlari mumkin. O'qituvchi berilgan yoki o'zi aytib turgan gaplarning sxemasini chizib borishni talab qiladi. O'quvchilar o'zlari chizgan simvolik belgilarning qo'llanilish sabablarini tushuntiradilar.

Muammoli vaziyat yaratishning bu usulidan «Uyushiq bo'lakli gaplar» kabi mavzularni o'tishda unumli foydalansa bo'ladi.

5. Til materialiga ayrim o'zgartirishlar kiritishni talab qilish orqali muammoli vaziyat hosil qilish mumkin. Ma'lumki, tilning asosiy materiali so'z, so'z birikmasi, gap va matnga o'quvchi ayrim o'zgartirishlar kiritadi. U nuqtalar o'rniga ma'noga muvofiq keladigan so'z topib qo'yishi, berilgan so'z birikmalarining sinonimlarini topishi, gaplarning ma'nosini saqlagan holda so'zlar o'rnini o'zgartirishi, ma'lum bir fikrni boshqa so'zlar yordamida bayon qilishi, berilgan matnni qisqartirib yoki o'zgartirib bayon qilishi, matnga qo'shimchalar qo'shishi mumkin. Bu ish turlarining barchasi muammoli vaziyatni vujudga keltirishga yordam beradi.

6. O'qituvchi muammoli vaziyat yaratishni o'quvchilarning o'zlariga ham topshirishi mumkin. Ular til materiallarini kuzatish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish natijasida o'zlari muammoli vaziyat hosil qiladilar. Masalan, o'qituvchi «Fe'l ma'no qo'shimchalar» mavzusini o'tishda yangi o'quv materialini quyidagi topshiriqlarni bajarishdan boshlaydi:

Matnni o'qing va nuqtalar o'rniga fe'l yasovchi qo'shimchalardan zarurini qo'yib ko'chiring.

Suv shovil... oqardi. (Parda Tursun.)

7. Muammoli vaziyat yaratishda izlanish xarakteridagi o'quv masalalarining o'rnini benihoya katta. «Masala» tushunchasi turmushda ham, fanda ham ko'n qo'laniladigan tushunchalardan biridir. Ayniqsa, bu tushuncha tabiiy-matematik tsikldagi fanlarda ko'p qo'llaniladi.

Masalaning xarakterli xususiyati uning izlanishga qaratilganligidir. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda masalaning imkoniyatlari ancha keng, albatta. Avvalo masala tilga oid bo'lgan bilimlarni izlab topishga qaratilganligi uchun ham uni bajarishda o'quvchilar o'z ijodiy kuchlarini to'la safarbar qilishga harakat qiladilar.

Bilishga oid masalalar nazariy xarakterda ham, amaliy xarakterda ham bo'lishi mumkin.

Nazariy masalalar til hodisalarini mustaqil kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash orqali yangi bilimlar

olishga qaratilgan. Bu masalalar, asosan, o'quvchining ijodiy faoliyat tajribasiga tayangan holda tilning nazariy asoslarini «ochish»ga xizmat qiladi. Ayniqsa, o'zbek tilining nazariy asoslarini paradigmatic negizda o'rganishda lingvistik masalalar muxim rol o'ynaydi. O'quvchi bir-biriga yaqin paradigmalar yoki qarama-qarshi paradigmalarni mustaqil ravishda kuzatish, taqqoslash, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash orqali yangi bilimlarni egallashga tomon dadil qadam tashlaydi.

Nazariy xarakterdagi lingvistik masalalardan namunalar keltiramiz:

1-masala. Avval unli, keyin undosh tovushlarni talaffuz qilib ko'ring. Siz ular orasida qanday farqni sezyapsiz? Qaysi belgilarga qarab siz ularni unli va undosh tovushlarga ajratdingiz?

Fikringizning to'g'riligini qanday isbotlaysiz?

2-masala. Harflarning qanday joylashtirilgan qatori alfavit deyiladi? Lug'atlarda va turli ro'yxatlarda so'zlar alfavit tartibida joylashtiriladi. Nima uchun? Alfavit tartibini bilishning qanday ahamiyati bor?

3-masala. Nima uchun biz tilimizda urg'uli va urg'usiz bo'g'in degan tushunchani qo'llaymiz. Siz ularni qanday ajratasiz? So'zlarda urg'uni to'g'ri qo'llashning ahamiyati nimada?

4-masala. -li, -lik, -chi, -chilik qo'shimchalari yordamida so'zlar yasang. Bularning so'z yasovchi qo'shimcha ekanligini qanday isbotlaysiz?

Nazariy xarakterdagi muammoli-lingvistik masalalar o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishga, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Amaliy xarakterdagi masalalar. Amaliy xarakterdagi masalalar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Chunki u tilning o'z qoidalar va ta'riflari bilan ish ko'rmasdan, balki uning asosiy materiali bo'lgan so'z, so'z birikmasi, gan va matnlarni kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish orqali o'ziga noma'lum bo'lgan yangi bilimlarni egallaydi.

Amaliy masalalar til o'qitishning amaliy yo'nalishini kuchaytiradi. O'quvchi bunday masalalar orqali amaliyotdan nazariyaga yo'l topadi. Bu esa tilning nazariy asoslarini ongli va puxta o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Amaliy masalalarning yana bir muhim tomoni shundaki, u o'quvchilarni muammoli vaziyatlarga olib keladi. Bunday vaziyat, shubhasiz faollikni ko'zg'atadi.

Quyida ana shu topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

«Nutq tovushlari»ga oid masalalar:

1-masala. Qatik — qattiq, dara — darpa singari so'zlarning farqi bormi? Ularning bir so'z emasligini isbotlang.

2-masala. Siz bur — bo'r, bog' — bug', bol — bul, tosh — tish, tup — to'p, stol — stul singari so'zlarga duch kelasiz. Ularni farqlashga sizga nima yordam beradi?

3-masala. Azamatning tomog'i og'rib doktorga murojaat qildi. Logoped undan «a» tovushini talaffuz qilishni so'radi. Nega vrach undan boshqa tovushni emas, «a» ni talaffuz qilishni talab qildi?

4-masala. Berilgan so'zlarning talaffuzi va ma'nosida farq bormi?

she'r — sher, sur'at — surat, ta'na — tana, qal'a — qala, da'vo — davo, sa'va — sava, fe'l — fel.

Ma'noni farqlashda sizga nima yordam beryapti?

«So'z yasash»ga oid masalalar:

1-masala. So'ngi — so'nggi, tongi — tonggi so'zlarini bir-biridan qanday farqlaysiz? Ularning boshqa-boshqa ma'noga ega ekanligini isbotlang.

2-masala. Ro'molli — rumollik, uyli — uylik, ko'ylakli — ko'ylaklik so'zlarining ma'nosidagi farq so'zlarning qaysi qismiga bog'liq ekanligini aniqlang.

3-masala. Bog' — bog'bon, bog'ich, bog'bonlik, bog'la, bog'dor, bog'lam, bog'liq, bog'cha, bog'dorchilik, bog'lovchi so'zlari o'rtasida qanday yaqinlik va farqli tomonlar bor. Bu so'zlarning o'xshash va farqli tomonlarini isbotlang.

«So'z turkumlari»ga oid masalalar:

1-masala. Sut, guruch, ko'l, suv kabi so'zlar qaysi sonda qo'llanilgan? Nima uchun bu so'zlarni ko'plikda ko'llash mumkin emasligini isbotlang.

2-masala. Baland, balandroq, eng baland sifatlari ma'no jihatidan farq qiladimi? Bu farqni siz qanday izohlaysiz?

3-masala. Ayt, kel, fe'llarini uch zamonda qo'llash mumkinmi? Fikringizni asoslang.

Gapga-oid masalalar:

1-masala. A'lochi qiz Manzuradan o'rtoqlari so'rashdi:

1-o'quvchi: Sen III chorakni qanday yakunlading?

2-o'quvchi: Sen III chorakni qanday yakunlading!

3-o'quvchi: Sen III chorakni qanday yakunlaganingni gapirib ber.

Bu gaplar bir-biridan nima bilan farq qiladi (mazmuni, tuzilishi, ohangi).

2-masala. «Oppoq paxtalar ochildi» va «Paxtalar oppoq ochildi» gaplaridagi oppoq so'zlari qaysi gap bo'lagi vazifasini bajaryapti? Nega ular bir gap bo'lagi bo'la olmaydi?

3-masala. CHap va o'ng tomondagi gaplarni taqqoslang.

O'quvchilar nihol o'tqizish oyligiga faol qatnashdilar.	O'quvchilar, nihol o'tqizish oyligiga faol qatnashingiz.
Azamat o'zi o'tqizgan olma niholini har kuni parvarish qiladi.	Azamat, o'zing o'tqizgan olma niholini har kuni parvarish qil.

Siz bu gaplarda qanday farqni sezyapsiz? Nega o'ng tomondagi o'quvchilar va Azamat so'zlari gapda ega bo'lib kela olmaydi?

Amaliy xarakterdagi masalalarning asosiy qismini nutq o'stirishga qaratilgan masalalar tashkil etmog'i lozim. Bunday masalalarni shartli ravishda uch guruhga bo'lsa bo'ladi:

1. O'quvchilarning so'z boyligini o'stirishga qaratilgan masalalar: Bu gruppadagi masalalar o'quvchilarning shaxsiy lug'atidagi kam qo'llanadigan so'zlarni faol so'zlarga aylantirish, ularni tilimizda paydo bo'lgan va bo'layotgan so'zlar bilan sistemali ravishda tanishtirib borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

O'quvchi lug'atidagi passiv so'zlarni faol so'zlarga aylantirishning muhim choralaridan biri so'zning ma'nolari ustida sistemali ishlashdir. So'zning ma'no nozikligini farqlashga qaratilgan masalalar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi; ularning o'quv-biluv faoliyatini faollashtirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarning so'z boyligini o'stirishga qaratilgan masalalardan namunalar keltiramiz:

1-masala. Siz she'r — sher, ta'na — tana, da'vo — davo, sur'at — surat, qal'a — qala, sa'va — sava, fe'l — fel singari so'zlarga tez-tez duch kelasiz. Bu so'zlarning ma'nolariiii qanday izohlaysiz?

2-masala. Adib va adip so'zlarining ma'nosida farq bormi? Bu so'zlar yordamida gap tuzib, ma'nosini izohlang.

3-masala. Roziya bir matnda baxt so'zini to'rt marta takrorlagan. U bu so'zni qaysi so'zlar bilan almashtirishi mumkin edi.

3. Uslubiy malakalarni shakllantirishga oid masalalar. Ona tili darslarida nutq o'stirishga qaratilgan amaliy xarakterdagi masalalarning asosiy qismini amaliy-stilistik masalalar tashkil etmog'i lozim. Bu masalalar asosan o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatik vositalarini nutqda qo'llashga doir bo'lib, u o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. SHunday masalalardan namunalar keltiramiz.

Fonetik-uslubiy masalalardan namuna:

1-masala: Asar qahramonining nutqiga e'tibor bering. Unli tovushning takrorlanib kelishi qanday ma'noni anglatyapti?

Azamat. To'g'ri aytasan..., e... aytasiz... .

Ulmasoy. Senlab gapiravering... .

Bahodir. Bordi-yu, ikki yuzta miltiqni rastararam kilib nevara-chevarasi bilan ko'paytirib bersak-chi, a... a... unda nima bo'ladi?

Omon. Ha, unda nima bo'ladi? (K.Yashin.)

2-masala. Quyidagi so'zlarni ko'chiring. Bir-biriga yaqin talaffuz qilinuvchi so'zlarning talaffuzi, yozilish va ma'nosida qanday farqni sezyapsiz?

Azim — azm, asar — asr, bob — bop, juda — judo, so'nggi — so'ngi, atlas — atlas, olma — olma, bosma — bosma, yuklama — yuklama, yoshli — yoshlik.

Ajratib yozilgan so'zlar yordamida gap tuzing.

Leksik-uslubiy masalalardan namuna,;

1-masala. Gaplardagi qarama-qarshi so'zlarga e'tibor bering. Ular yakka holda kelganda qanday ma'noni va juft holda kelganda qanday ma'noni anglatadi? To'yga do'st-dushman keladi. Ertayu kech fikrim shu. Qishloqning butun katta-kichigi nihol o'tqizish oyligiga faol qatnashdilar.

Bu gaplardagi antonimlarni boshqa soʻz bilan almashtirib koʻring-chi?
(«Toʻyga hamma keldi. Doim fikrim shu kabi?») Qanday xulosa chiqardingiz?

Morfologik-uslubiy masalalardan namuna:

1-masala. Quyida berilgan ikki gapni taqqoslang: 1. CHol minbarga chiqib yigitchasiga gapirdi. 2. Tanishib olaylik, otingiz nima, yigitcha?

Yigitcha soʻzining maʼnosida farq bormi? Siz bundan qanday xulosa chiqardingiz?

2-masala. Quyidagi toʻrtlikni diqqat bilan oʻqing. Nega shoir shu olmoshini uch misrada takror qoʻllayapti?

Ukam, yovuzlarning topganlari shu,
Oʻz oʻgʻlin it boʻlib qopganlari shu.
Oʻz qalbin nafratlab yopganlari shu,
Moʻmin Mirzo, ukam, seni oʻldirdilar.

Sintaktik-uslubiy masalalardan namuna:

1-masala. SHu zalga bssh yuz kishi sigʻadimi? — soʻroq, gapini tinch ohang va kuchli oxang bilan ikki xil oʻqing. Gaplar mazmuni va vazifasida qanday oʻzgarishni sezdingiz?

2-masala. Men bilmayman, bular kimning qoʻylari? («Alpomish»dan) hamda «Men bu qoʻylarning kimniki ekanligini bilmayman» gaplari oʻrtasida qanday oʻxshashlik va farqli tomonlar bor?

3-masala. Quyidagi soʻz birikmalari va gaplarning mazmunini saqlagan holda shaklini oʻzgartirib yozing: 1. Anorday qizil yuz — 2. SHer yurakli qiz — 3. Zalda shovqin qilish mumkin emas—... . 4. SHuncha vaqt oʻynab yurguncha, tokning novdalarini bogʻlab koʻysang boʻlmasmidi?.. —

Matn bilan ishlash, matnni oʻzgartirish va matn yaratishga oid masalalar. Maʼlum bir uslubda berilgan matnni boshqa uslubda bayon qilish, matnlarni taqqoslash orqali ularning oʻxshash va farqli tomonlarini aniqlash, maqsadga muvofiq keladigan matn yaratish kabi topshiriqlar ham oʻquvchilar nutqini oʻstirishga qaratilgan topshiriqlar boʻlib, ular oʻquvchilarning bilish faolligini oshirishga samarali taʼsir koʻrsatadi. SHunday masalalardan namuna keltiramiz. (4sinf)

1-masala. Har ikkala matnni taqqoslang. Oʻrik soʻzining ilmiy va badiiy nutqda qoʻllanishida qanday farq sezyapsiz?

O'rik — ra'no guldoshlar (atirgullilar oilasi)ga mansub mevali daraxt. Uning bo'yi 10-15 metr. Bargi keng, tuxumsimon. Guli oq yoki pushti, bargidan oldin ochiladi. Mevasi etli, danagidan ajraladigan va ajralmaydigan xillari bor. Mart-aprelda gullaydi, mevasi may, iyunda pishadi. (O'zSE.)

O'rik daraxti ostidagi baland supada yotgan Murotali odatdagidek, tong saharda uyg'ondi. Uyg'ondi-yu, ko'zlarini katta-katta ochib o'rik shoxlariga termildi. Har bir novda g'uncha va gul bilan to'la edi. Keksa dehqon sevimli daraxtning shoxlari, novdalari, tugunchak va gullariga ishtiyoq bilan termilar ekan, qalbi sevinch bilan talpinar edi. Qudratli o'rikning uzun shoxlari va novdalari keng hovlini to'ldirib turibdi.

2-masala. Ilmiy-ommabop uslubda lola sayli shunday ta'riflanadi. Lola sayli — adir va dalalarda lola ochilgan chog'da o'tkaziladigan sayl. Ba'zi joylarda lola sayli guli surx dsb ham nomlanadn. O'rta Osiyoning ko'pgina tumanlarida lola sayli navro'z bayramiga qo'shib o'tkaziladi. Lola sayli lola o'sadigan tumanlarda tarqalgan.

Lola saylida lola teriladi, ko'kalamzor joylarda ovqat tayyorlab o'yin-kulgi qilib, hordiq chiqariladi. Lola sayli jamoa bo'lib dam olishning o'ziga xos shaklidir. Lola sayli shahar va qishloq yoshlarining sevimli sayllaridan biri bo'lib qolmoqda. (O'zSE.)

Lola saylining badiiy tasvirini berishda siz qanday vositalardan foydalanasiz? Siz yaratgan matnning yuqoridagi matndan farqi nimada?

SHunday qilib, ona tili darslarida izlanishga asoslangan nazariy va amaliy xarakterdagi lingvistik masalalardan unumli foydalanish o'quvchilar faoliyatini faollashtirishning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Masala — tilni harakatga keltiradigan, uni o'quvchi faoliyatiga olib kiradigan, aloqa-aralashuvini muhim quroliga aylantiradigan vosita. SHuning uchun ular ona tili ta'limida o'zining qonuniy o'rnini egallamog'i lozim.

Muammoli vaziyat yaratishda til materialining murakkablik darajasini hisobga olish nihoyatda zarur. CHunki o'qituvchi til materialining murakkablik darajasidan kelib chiqib, muammoli vaziyat yaratishning usulini tanlaydi.

Oldindan o'quvchilarga ma'lum darajada tanish bo'lgan til materiallarini o'tishda ko'proq kuzatish, taqqoslash kabi usullardan foydalanishga to'g'ri kelsa, o'quvchilarga tamoman notanish bo'lgan mavzularni o'tishda muammoli savolni qo'yib, darslikdan javob izlash, o'qituvchi bilan baravar harakat qilib muammoni yechish kabi usullardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Muammoli vaziyatni vujudga keltirishda o'quvchilarning o'quv imkoniyatini ham hisobga olish zarur. Har bir o'quvchining o'zlashtirish imkoniyatiga qarab muammoli topshiriqning murakkablik darajasi belgilanadi.

Muammoning mohiyatini anglash muammoli ta'limning birinchi bosqichidir. Keyingi bosqichlar: muammoni yechish, natijani hisobga olish ana shu birinchi bosqichning to'g'ri uyushtirilganligiga bog'liq. Ayniqsa, birinchi bosqichda o'zlashtirishi bo'sh o'quvchilarni muammoli vaziyatga olib kirish o'qituvchiga ancha murakkablik tug'diradi. Buning uchun o'qituvchi differentsial ta'lim imkoniyatlaridan unumli foydalanishi kerak. Muammoli topshiriqlar o'quvchilar kuchiga muvofiq tanlanishi kerak.

Ona tili darslarida yaratiladigan muammolar xarakter xususiyati bilan uchga bo'linadi: 1. Nazariy muammo. 2. Amaliy muammo. 3. Badiiy muammo.

Nazariy muammo ona tilining qonun-qoidalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, o'quvchi yangi bilimlar olish jarayonida kuzatish, til materiallarini analiz qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash natijasida qoida va xulosalar chiqaradi. Nazariy yo'l bilan vujudga keltirilgan muammoli vaziyat o'quvchilardan nazariy izlanishni talab qiladi. Ular til hodisalari to'g'risida nazariy xulosalar chiqaradi. Nazariy muammo o'quvchilardan ularga noma'lum bo'lgan nazariy hodisalarni tarkib toptirishni talab qiladi. Nazariy muammoni yechish natijasida chiqariladigan qoida va xulosa o'quvchining shaxsiy bilimiga aylanadi. SHuning uchun ona tili o'qituvchisi tayyor qoida va xulosalarni aytishdan ko'ra muammoli yo'l bilan o'quvchilarning o'zini qoida va xulosalar chiqarishga boshlab kelishi katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Amaliy muammolar nazariy tushunchalar mohiyatini chuqurroq anglash, egallangan nazariy bilimlarni amalda qo'llash, tilning kommunikativ funksiyasini tobora takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Bunday xarakterdagi muammolarga ona tilining o'zlashtirib olingan qonun-qoidalarini yangi vaziyatda qo'llash usullarini izlash, qisman izlanuvchanlik va izlanuvchanlik xarakteridagi amaliy topshiriqlarni bajarish, o'quvchilarning ijodiy ravishda so'z, so'z birikmasi, gap va matnlar tuzishi

kabilarni kiritish mumkin. Muammoli topshiriqning bu turi ko'proq nazariy materiallarni mustahkamlash, egallangan bilimlarni malaka va ko'nikmaga aylantirish maqsadida uyushtiriladi. Ayniqsa, amaliy muammo o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishda muhim rol o'ynaydi.

Badiiy muammo o'quvchilarni badiiy ijodga yetaklaydi. Ona tili darslarida yoziladigan insholar, kichik hajmdagi hikoyalar, she'rlar, o'qilgan badiiy asar yoki ko'rilgan kinofilmlarga taqriz yozish kabilar muammoli topshiriqlarning shu turiga kiradi. Ayniqsa, o'quvchida so'z tanlash mahoratini biz ko'proq badiiy muammolardan foydalanish orqali amalga oshiramiz.

Ko'pgina hollarda o'qituvchi maqsadga muvofik keladigan muammo ham tanlaydi, muammoli vaziyatni ham metodik jihatdan to'g'ri yaratadi, ammo uni yechishni to'g'ri tashkil eta olmaslik tufayli qilingan mehnat zoe ketadi. SHuning uchun o'quvchilarni muammoli o'quv topshiriqlarini yechish usullariga ham o'rgatish lozim.

Muammoni to'g'ri yechishni uyushtirish uchun: a) muammoning maqsad va mohiyatini o'quvchilarga to'g'ri anglatish; b) ularda o'tgan mavzular yuzasidan sistemali bilimlarning mavjudligiga erishish; v) har bir o'quvchida mustaqil ishlash malakasini tarkib toptirish; g) o'quvchilarni logik-lingvistik operatsiyalar bilan qurollantirish; d) ularning maqsadga muvofiq keladigan gipotezalar qilishini ta'minlash; ye) muammoni yechishning optimal variantini belgilash juda katta ahamiyatga ega.

O'quvchi har qanday xarakterdagi muammolarni yechishda oldin o'rganilgan til materiallariga, mavjud bilim, malaka va ko'nikmalarga tayanadi. O'quvchi tilning ma'lum faktlariga tayanib, noma'lum faktlarni qidiradi.

Ona tili darslarida muammoni yechishning evristik va analitik usullari mavjud.

Evristik usul o'quvchilardagi mavjud bilim, ko'nikma va malakalarga tayanadi.

Muammoni yechishda o'quvchi turli vositalardan foydalanadi. Ayniqsa, muammoni yechishda darslik, o'quv qo'llanmalari, badiiy adabiyot va turli xildagi lug'atlarning roli katta. O'qituvchi muammoni yechish uchun o'quvchilar darslikdan nimani o'qib chiqishlarini yoki qanday mashqlarni bajarishlari lozimligini ko'rsatadi. Qo'yilgan muammoni to'g'ri yechish uchun o'quvchilarni to'g'ri o'qish malakalari bilan ham qurollantirish lozim. To'g'ri o'qish avvalo tushunib o'qish, unda ilgari surilgan g'oyani bilib olish demakdir.

Ona tili darsligini o'qishning o'ziga xos xususiyatlari bor. O'quvchi nazariy muammoni to'g'ri hal qilish maqsadida darslikdan asosan, kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish uchun berilgan materialni, ta'rif, qoida va xulosalarni o'qib chiqishi mumkin. Amaliy muammoni hal qilish maqsadida ba'zan nazariy ma'lumotlardan eng muhim o'rinlari o'qib chiqiladi. Badiiy muammolarni yechish esa o'quv topshirig'ining sharti, badiiy, fikrni uyg'otuvchi material (rasm, boshlanish qismi berilgan hikoya, reja va hokazo) o'qib chiqiladi. Ayniqsa, muammoni yechishda o'qish darsligidagi materiallar, shuningdek, badiiy asarlarning roli katta. Badiiy adabiyot o'quvchi uchun nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llash maydonidir. Grammatik qoida talabiga muvofiq, so'z, so'z birikmasi, gap va matnlar tanlashda o'quvchi badiiy adabiyotga murojaat qiladi.

Muammoni yechishning yana bir usuli o'quvchilarning mustaqil ishlashini o'qituvchining qisman yordami bilan qo'shib olib borishdir. Ayniqsa, murakkab temalarni o'tishda o'qituvchining yordami zarur.

Ta'limda muammo yechimining to'g'riligini sinash o'qituvchidan katta pedagogik mahorat talab qiladi. Bu ishning murakkab tomonlaridan biri o'quvchilarda o'z taxminlariga ishonch hosil qildirishdir.

Nazariy muammoning natijasi o'quvchi chiqargan qoida va xulosalar bilan darslikda berilgan qoida va xulosalarning bir-biriga muvofiq kelishi sanaladi. Amaliy va badiiy muammo egallangan nazariy bilimlarning amalda to'la tatbiq etilishi, erishilgan natijaning to'g'riligiga ishonch hosil qilish bilan yakunlanadi. Agar muammoni yechishda o'quvchi ma'lum bir xato va kamchilikka yo'l qo'ygan bo'lsa, u bu xato va kamchiliklarning sabablarini bilib olishi hamda uni bartaraf etishning aniq usullarini anglashi zarur. Shunday qilib, ona tili darslarida muammoli ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish katta afzalliklarga ega.

I-Bob bo'yicha xulosalar

1. Muammoli ta'lim o'zining muayyan ilmiy pedagogic asoslariga ega. Ta'limda bu asoslarga e'tibor berilmasa, usulning samarasi bo'lmaydi.
2. Insonning muammoli vaziyatlar sharoitidagi produktiv bilish faoliyati bosqichlarining muayyan izchilligi psixologiya tomonidan belgilab berilgan.
3. Izlash – muammoni hal qilish. Bu usulni qo'llashda ana shu tizimga rioya qilish zarur.
4. Muammoli ta'lim izchizchilligi fikrlash jarayoning mantig'i bilan oldindan belgilangan, boshlang'ich nuqtasi esa muammoli vaziyat hisoblangan bosqichlarga bo'linib, ularga rioya qilish talab etiladi.

II-Bob. Muammoli ta'limni boshlang'ich sinflarda qo'llash amaliyoti.

II.1. Muammoli ta'limni ona tili mashg'ulotlarida qo'llash amaliyoti tahlili.

Boshlang'ich sinflarda ta'limni tashkil etish o'ziga xos yo'nalishlarga egadir. Zero boshlang'ich sinflar ta'limning boshlang'ich nuqtasini belgilab beradi.

O'zbekistonda ta'lim sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligidir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bu modelni amalgam oshirish bilan hayotimiz jabhalarida ro'y beradigan "portlash effekti"¹ natijasi va bu bilan ta'lim rivoji ham kuzatilmoqda.

"Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning asosida Grammatik nazariya emas, balki nutqiy ko'nikma va orfografik malaka hosil qilish turadi"¹.

Bu davrda bolalar til materiallarini tahlil qilishga asosiy tushunchalarni ajratishga o'rgatiladi. Matematik tahlil-tarkib qilish guruhlash va umumlashtirish o'xshash va farqli tomonlarini topish nutqiy va orfografik ko'nikmalarni amalda tadbiq etish jarayonida bolalar har tomonlama rivojlanadi.

O'quvchilarda bu malakalarni hosil qilish uchun boshlang'ich sinflarda grammatika imlo va nutq o'stirish dasturiga ko'ra o'quvchilar so'z oxirida kelgan jarangli undoshlarning jarangsiz jufti bilan almashtirib talaffuz etilishi ammo yozuvda jarangli undosh yozilishi kabi mavzularni o'rganib mustahkamlaydilar.

Masalan 1-sinf doirasida 1-yarim yillikda savod o'rgatish darslari bo'lib bunda o'qituvchi oldida so'zlarning yozuvda ifodalanishi harf va tovush haqida tushuncha so'zni bo'g'in va tovushlarga ajratish bog'lanishli nutqni o'stirish kabi mavzular bilan tanishtiriladi, 2-yarim yillikda esa mavzular murakkablasha boradi.

2-sinfda o'quvchilarga til fanining boshlang'ich ma'lumotlar beriladi.

3-sinfda 2-sinfdan farqli mavzular murakkablashtirilishi bilan birgalikda ularning salmog'i oshib ilmiy jihatdan takomillashib boradi.

3-sinfda leksik mashqlarga ham alohida ahamiyat beriladi. O'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar yaqin ma'noli va qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan tanishtiriladi.

4-sinfda ham 3-sinfdan farqli o'laroq mavzular takomillashib boradi. Shunday ekan mazkur sinflarda, ya'ni boshlang'ich sinflarda muammoli ta'limni tashkil etish o'ziga xos iqtidor, bilim, malakani, qolaversa bolalarni tushuna olishlikni talab etadi.

Chunki o'quvchini tushunmay turib uning saviyasini bilmay turib muammoli ta'limni tashkil etib bo'lmaydi.

Muammoli ta'limni tashkil qilishda quyidagi dars ishlanmalari orqali tanishib darsda

o'qituvchi qanday muammoli ta'limni qanday yo'nalishda tashkil qila olgan yoki aksincha darsda qanday xatolarga yo'l qo'ygan. Demak bu dars amaliyoti Andijon shahar 8-maktab o'qituvchisi Shahnozaxon Turg'unovanning 3-sinflarda ona tili darsini ko'rib o'tamiz. Bu darsda o'qituvchining ijodkorligi darsda qanday yutuqlarga erishgani yoki darsning muammoli ta'lim bilan qanday boyitilgani haqida mulohaza yuritamiz.

Mazkur keltirilgan dars ishlanmalarida muammoli ta'limni qo'llashda turli xil xatolarga yo'l qo'yilgan.

Mavzu: Otlarda birlik va ko'plik.

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarni birlik va ko'plikdagi otlar bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni tabiatni sevish ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarni mustaqillikka yo'naltirish.

Darsning turi: muammoli dars.

Darsning metodi: suhbat.

Darsning jihozi: rasmlar, mavzuga oid jadvallar.

Darsning borishi.

1. O'quvchilarni darsga tayyorlash

Darsni tashkil etish.

2. Yangi mavzuni bayon etish. 211-mashqdagi ikkita gap o'qiladi

O'quvchilar diqqati o'quvchi va o'quvchilar so'ziga qaratiladi.

O'quvchi so'ziga so'roq bering.

O'quvchilar so'ziga so'roq bering.

O'quvchi-ot. O'quvchi nechta ot o'quvchilar qanday ot.

Mashqdagi bulbul, bulbullar, qaldirg'och, qaldirg'ochlar, kitob, kitoblar so'zlari yuzasidan ham yuqoridagidek savol-javob o'tkaziladi. Jarayon muammoli kechadi.

Birlik va ko'plikdagi otlar aniqlanadi. Ulardan quyidagi xulosa chiqariladi. Otlar birlik va ko'plikda bo'ladi. Birlikdagi otlar kim? yoki nima?, ko'plikdagi otlar kimlar? yoki nimalar? So'rog'iga javob bo'ladi. –lar qo'shimchasi birlikdagi otdan ko'plikdagi otni hosil qiladi.

Birlik va ko'plikdagi otlar doskada quyidagi tartibda yozib boriladi.

Birlik

o'quvchi

bulbul

kitob

Ko'plik

o'quvchilar

bulbullar

kitoblar

O'quvchilar doskadagi otlarni ko'chirib yozadilar.

¹ Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T. "O'qituvchi", 1985, 14-bet.

212-mashqni bajarish. She'r o'qitilib so'roqlar yordamida otlarning birlik va ko'plikda ekani aniqlanadi. Ko'plikdagi otlarni birlikdagi otlarga aylantirib yoziladi.

Saylanma diktant.

Saylanma diktant uchun quyidagi gaplardan foydalanish mumkin.

Navbatchi sinf xonasini shamollatdi.

Kuzda daraxt barglari sarg'aydi.

Yengil shabada esdi.

Kabutarlar osmonga ko'tarildi.

O'qituvchi gaplarni alohida-alohida o'qiydi. O'quvchilar gaplarni diqqat bilan tinglab birlik va ko'plikdagi otlarni tanlab yozadilar.

Husnixat mashqlari.

Uyga vazifa 213-mashq.

Navbatdagi dars ishlanmasi ham 3-sinflarda o'tkazilgan bo'lib, bu ham 8-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Umidaxon Sobirova tomonidan o'tilgan muammoli dars.

Mavzu: O'zak va o'zakdosh so'zlar.

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga so'z tarkibi o'zak va o'zakdosh so'zlarni o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsadi: hadis namunalari bilan tanishtirib tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsadi: so'zlarning umumiy qismini aniqlash va belgilash malakasini hosil qilish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat.

Darsning jihozi: narsalarning rasmi, chizmalar.

Darsning borishi.

O'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

135-mashq yuzasidan suhbat umumlashtiriladi.

- Matn nima haqida?
- Unga qanday sarlavha tanlash mumkin?
- Matnda qanday gaplar bor?
- Uchinchi gapning bosh bo'laklarini o'qing. Bosh bo'lak – kesimga bog'langan so'zlarni o'qing.
- Gapda qanday bo'laklar ishtirok etgan?
- Gapdagi so'zlar bir-biriga qanday bog'langan?
- Ikkinchi darajali bo'laklar gapda nima uchun kerak?
- Siz ham hayvonot bog'iga borganmisiz?

- Nimalarni ko'rgansiz?

3. Yangi mavzu bayoni.

Bolalar 137-mashqda berilgan o'zakdosh so'zlarni doskadan o'qiydilar va suhbat yordamida nima uchun ular o'zakdosh so'zlar bo'la olishini aniqlaydilar. Suhbatda quyidagi savollardan foydalanish mumkin.

- *Sinf* so'ziga so'roq bering. (Nima?)
- Endi *Sinf*dosh so'ziga so'roq bering. (Kim?)
- Kim?, Nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiradi. (shaxs, narsalarni)
- *Sinf* deganda nimani tushunasiz? (Mana shu biz o'qiyotgan xonani.)
- *Sinf*dosh deganda-chi? (Bir sinfda o'qiydigan bolalar bir-biriga sinfdosh.)
- Shu ikki so'z uchun umumiy bo'lgan so'zni o'qing. (*Sinf*)

O'qituvchi suhbatni xulosalab, *sinf*, *sinf*dosh so'zlarning umumiy qismi *sinf*.

Bu so'zlar o'zakdosh so'zlardir. O'zakdosh so'zlar uchun umumiy bo'lgan qism o'zak deyilishini tushuntiradi. Bolalar qoidani darslikdan o'qiydilar. O'zakdosh so'zlarni doskadan yoki kitobdan ko'chirib yozadilar.

O'zakni namunada ko'rsatilganidek belgilaydilar.

Namuna: sinf – sinfdosh, ish – ishchi, gul – guldon.

4. O'quvchilarning o'zak va o'zakdosh so'zlar haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

O'qituvchi doskada yozilgan so'zlar *bosh*, *boshliq*, *boshla*, *boshli*, *boshchilik* ga o'quvchilar diqqatini qaratib bu so'zlarning har biri ustida quyidagicha suhbat o'tkazadi.

- *Bosh* so'ziga so'roq bering. (Nima?)
- *Boshliq* so'ziga so'roq bering. (Kim?)
- Bu so'zlar nimani bildiriyapti? (Shaxs va narsalarni)
- *Boshli* so'ziga so'roq bering. (Qanday?)
- Qanday? So'rog'iga javob bo'lgan so'z nimani bildiradi? (Shaxs va narsalarning belgi xususiyatlarini)

Shuningdek *gul*, *gulchi*, *gulzor*, *guldor* so'zlari bilan ham shunday savol-javob o'tkazib, javoblar umumlashiriladi.

Tilimizda juda ko'p so'zlar bor. Ular orasida ma'no jihatdan bir-biri bilan yaqinlik sezilib turadi. Ularning qismlarida umumiylik seziladi.

Ana shu umumiy qism so'zning o'zagidir.

5. 138-mashqni bajarish.

Mashqdagi she'riy parcha ifodali o'qiladi. Mazmuni yoritiladi. O'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari tinglanib, quruvchilik kasbi ham alohida nazorat talab qiladigan ajoyib kasb ekanligi uqtiriladi.

She'r matnidagi o'zakdosh so'zlar doskada yonma-yon yozilib aniqlanadi. Ularning umumiy qismi namunadagidek belgilanadi.

Namuna: *quruvchi - quruvchilik*

6. Husnixat mashqlari.

Shior: *Go'zal husnixat buyuklardan qolgan me'rosdir.*

Husnixat uchun material.

Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling.

Odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin.

Muloyimlik hikmatning boshidir.

Gaplar o'qilib husnixat qoidalariga amal qilingan holda yoziladi. Hadisning mazmuni yoritiladi.

7. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'quvchilar bilimi quyidagi savollar orqali aniqlanadi va umumlashtiriladi.

- O'zak deb nimaga aytiladi?

- O'zakdosh so'zlarning qaysi qismi bir xil yoziladi.

8. Uyga vazifa 139-mashq "Gulchilar" matnini ko'chirib, o'zakdosh so'zlarni aniqlash, ohangdosh so'zlardagi o'zaklarni belgilash.

9. O'quvchilarni faol qatnashganlari rag'batlantiriladi.

10. Dars yakunlanadi.

2-sinf ona tili darsi.

O'qituvchi Shahzoda Ahmedova.

Mavzu: Bo'g'in ko'chirish.

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarni bo'g'in ko'chirishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Nutqiy uzilishlarga yo'l qo'ymaslik.

Rivojlantiruvchi maqsad: To'g'ri, ravon nutqni ta'minlash.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi.

Darsning metodi: Suhbat.

Darsning jihozi: Rasmlar, plakatlar.

Darsning borishi.

1. Darsni tashkil etish.

O'quvchilarni darsga tayyorlash. O'tilgan mavzu yuzasidan muammoli savollar qo'yish.

- Bo'g'in nimalardan hosil bo'ladi?

- So'zda bo'g'inning miqdori unli tovushga bog'liqmi yoki undosh tovushgami?

- So'zlarni bo'g'inga ajratayotganda qanday belgi qo'yiladi?

- Narx deb nimaga aytiladi?

2. Yangi mavzu bayoni.

Bo'g'in ko'chirish.

Bunda mavzuni savol berish bilan ochib beramiz.

So'zning bir yo'lga sig'may qolgan qismi keyingi yo'lga qanday ko'chiriladi?

O'quvchilar kitobdagi qoidani o'qiydilar.

1. So'z bir yo'ldan ikkinchi yo'lga bo'g'inlab ko'chiriladi:

Da-raxt, ol-cha, va'-da, san'-at.

2. Bo'g'in hosil qilgan bir unli harfni oldingi yo'lda qoldirib bo'lmaydi. onajon – o-na-jon emas, balki ona-jon, o'quvchi – o'-quv-chi emas, balki o'quv-chi kabi ko'chiriladi.

3. Bo'g'in hosil qilgan bir unli harfni keyingi yo'lga ko'chirib bo'lmaydi: mudofa-a emas, mudo-faa, voqe-a emas, vo-qea kabi ko'chiriladi.

106-mashq so'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'lib chiziqcha bilan yozing.

Bulbul – bul-bul, mayna – may-na, chumchuq – chum-chuq, musicha – mu-si-cha, laylak – lay-lak, turna – tur-na, qaldirg'och – qal-dir-g'och, qarg'a – qar-g'a.

107-mashq. Topishmoqni o'qing.

Yurar tekis egatdan.

Qanotlari po'latdan.

Yelkasida qopi bor.

Katta temir savatdan.

Ajratilgan so'zlarni bo'g'inlarga ajratib yozing.

e-gat-dan, qa-not-la-ri, po'-lat-dan, yel-ka-si-da, qo-pi, te-mir, sa-vat-dan.

4. Muammoli savollar.

- Qanday so'zlar bo'g'in ko'chirish uchun bo'linmaydi?

- Ona, ota, ahil, o'rik kabi ikki bo'g'inli so'zlar bo'g'in ko'chirish uchun bo'linadimi? nima uchun?

- Dars so'zida nechta bo'g'in bor?

- "Gultojixo'rozlarimiz" so'zi necha bo'g'inli so'z?

112-mashq. O'qing. Avval bo'g'in ko'chirish uchun bo'linmaydigan so'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'lib chiziqcha bilan yozing.

o-lim, she'r, aka, qasd, kaft, mu-al-lim, zo-lim, oquv-chi, da-raxt, daf-tar, ruch-ka.

5. Uyga vazifa: 113-117 mashqlarni bajarish. Bo'g'in ko'chirish haqida gapirib bering.

6. Darsni yakunlash. Rag'batlantirish

Biz yuqorida 8-maktabning 2-3-sinflarida har xil mavzularning o'tilishi bilan tanishib chiqdik. Bunda 2-sinflarda bo'g'in ko'chirish, 3-sinflarda esa otlarda birlik va ko'plik hamda o'zak va o'zakdosh so'zlarning o'tilishi mavzulari bilan tanishdik.

To'g'ri, bu darslarning yaxshi o'tilgani ko'rinib turibdi. Har bir dars o'ziga xos strukturaga ega bo'lib, darsning turi yangi bilim beruvchi dars hisoblanadi.

Darsning yangi bilimlarni so'rash, tushuntirish, takrorlash, yod oldirishga bo'linishi eng muhim narsani – o'quvchi faoliyatini hisobga olmaydi. Bunday darsda rasman hamma narsa: hikoya qilish metodi, suhbat usuli, so'rash, yangi materialni tushuntirish bor, biroq amalda o'quvchi fikri ko'pincha qo'zg'otilmay qoladi. Mavzuga mashg'ulotlarga qiziqish uyg'onmaydi. Nima uchun? Chunki o'qituvchining diqqat markazida o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyati emas, balki o'qituvchining shaxsiy faoliyati turadi.

To'g'ri, biz yuqorida keltirgan dars analizida o'quvchilarga birmuncha erkin fikrlash imkoniyati berilgan. Lekin darslar to'liq muammoli tarzda tashkil qilindi va darslar baxs munozarali o'tkazildi degani emas.

Masalan 2-sinfda bo'g'in ko'chirish darsida o'qituvchi tomonidan muammoli savollar deb o'quvchilarga savol bilan murojaat qilindi. Vaholanki muammoli darsda muammoli savolgina berib qolmay dars jarayonida muammoli vaziyatni yarata olish kerak.

Muammoli ta'limni tashkil etishda darsni tashkil etish shart-sharoitlari va talablari bor.

Darsni samarali, o'quvchilar uchun qiziqarli qilib o'tkazish uchun nima qilish kerak?

Birinchi navbatda bu darsni tashkil etishning shart-sharoitlari qandayligini bilish kerak.

Hozirgi zamon pedagogic jarayoniga qo'yiladigan birinchi va asosiy talab, o'rganilayotgan materialning mazmuni hayot bilan bog'liq bo'lishi ilmiy haqiqatni aks ettirishi kerak.

Ikkinchi talab – muammoli vaziyatlarni muntazam ravishda hosil qilish, bilish jarayoni mantiqiga amal qilish xulosalarni qat'iy dalillashtirish.

Uchinchi talab – so'z bilan ko'rsatmalilikni albatta birga qo'shib olib boorish o'quvchi ongiga o'zaro aloqasi obraz va rasmlarni shakllantirish uning tuyg'ularini rivojlantirish uchun ta'limning zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish.

Ko'rsatmali obrazlar va ta'limning texnika vositalarini qo'llanish o'quv mehnati samaradorligini oshiradi, metodlarning xilma-xil bo'lishini ta'minlaydi. Ko'rgazmalilik mezonini asoslab bergan buyuk didakt olim Kamenskiy¹ uqtirganidek, “agar biron bir narsani bir necha sezgi a'zolari orqali idrok ettirish mumkin bo'lsa u narsani idrok qilish uchun bir necha idrok qilish sezgi a'zolarini ishga solish kerak. Ya'ni eshitib bo'ladigan narsalarni eshittirish bilan, hidlarini hidlatish, ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ushlatib ko'rsatish” kerak.

To'rtinchi talab – ta'limni albatta maqsadga yo'naltirilgan tarbiya bilan qo'shib olib

boorish.

Ta'limni hayot bilan bog'lash yo'llarini izlash zarur.

Beshinchi talab – mavzu o'quv materialiga muntazam ravishda qiziqish uyg'otish bilishga oid ehtiyojlarni shakllantirish o'qitish jarayonining tasirchanligini oshirish.

Oltinchi talab – o'quvchining individual va yosh xususiyatini hisobga olgan holda o'quv materialinining qiyinlik darajasini hamda ta'lim metodlarini to'g'ri belgilash, ta'limni tabaqalashtirish va individuallashtirishning psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

Yettinchi talab – qulaylik tamoyilini amalga oshirish uchun ilgari egallagan bilimlarni mustahkamlash.

Sakkizinchi talab – o'quvchilarning malaka va ko'nikmalarini bilimlarini amalda qo'llanish ular tomonidan mashqlarni amaliy laboratoriya ishlarini albatta bajarish yo'li bilan shakllantirish.

To'qqizinchi talab – o'zlashtirilgan bilimlarni va ularning aqliy amaliy harakatlarda qo'llanish sifati sinf va ayrim o'quvchilar ishining surati ustidan muntazam rejali ravishda hisob va nazorat olib boorish.

O'ninchi talab – maktab gigiyenasi qoidalari va o'quvchilarning kundalik rejimiga rioya qilish.

Sanab o'tilgan talablar rivojlanadigan jumladan muammoli ta'limning zamonaviy didaktikasi tamoyilidan kelib chiqqan.

Bu talablarni bajarish darsni muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy shartlar yig'indisidir.

Muammoli dars strukturasi.

O'qituvchilar bilan suhbatda: Siz darsga tayyorgarlanish va uni tashkil etishda nimalarga amal qilasiz? degan savolga ko'pincha “Dars qurilishiga amal qilaman.” degan javobni eshitish mumkin.

Tematik va dars rejalari asosida dars strukturasi yotadi dars tahlili mantiqi alohida belgilanadi.

Umuman qurilish nima. Bu “Butun predmet, hodisa, jarayon tomonlari qismlari elementlerining mustahkam nisbatan barqaror aloqasi va hokazo hamkorligidir.

O'quvchilarning muhim vazifasi – fan asoslarini o'rganish yangi tishinchalar va harakat usullarini o'zlashtirish o'zida dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Bu jarayon ilgari o'zlashtirilgan tushunchalar tizimi hamda o'quvchilar faoliyati tajribasiga tayangan holda muttasil davom etadi.

Agar ilgari o'zlashtirilganlarni aktuallashtirish yangi materialni anglash va o'zlashtirishning asosi bo'lsa aqliy va amaliy faoliyat ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonni yakunlaydi. Shuning uchun ham biz har bir darsda uning tipi va turidan qat'iy nazar

har xil darajada hal qilinadigan uchta umumlashgan didaktik masalani ko'ramiz. Ana shular zamonaviy muammoli darsning qurilish elementlaridir.

1. O'quvchilarning oldingi bilimlarini faollashtirish o'quvchilarning bilish faolligini rag'batlantirish.
2. Yangi bilimlar va harakat usullarini o'zlashtirish.
3. Yangi ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish.

Bu masalalarni hal qilish ayni vaqtda ilmiy dunyoqarash estetik qarashlar ahloqiy ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi.

Bu qurilish o'quvning asosiy bosqichlarini ham zamonaviy darsni tashkil qilish bosqichlarini ham aks ettiradi. Biroq o'quvchilarning fikrlash faoliyatlariga nisbatan, o'quv maqsadining ifodasi bo'lgani uchun u o'quvning tashqi belgisi sifatida namoyon bo'ladi ya'ni o'quvchilarning yangi bilimlarni o'rganish jarayonini aks ettirmaydi hamda bu faoliyatni boshqarishni ta'min etolmaydi.

- 1) muammoli vaziyatning vujudga kelishi va muammoni qo'yish;
- 2) tahminlarni olg'a surish;
- 3) gipotezalarni dalillash;
- 4) ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish.

Bu masalalarni hal qilish ayni vaqtda ilmiy dunyoqarash estetik qarashlar axloqiy ko'nikmalarni shakllantirishga olib keladi.

Ta'lim jarayonining ichki va tashqi elementlarining uyg'unlashuvini o'zida gavdalantiruvchi muammoli ta'lim strukturasi o'quvchilarning mustaqil o'qish – bilish faoliyatini boshqarish imkonini yaratadi.

Yangi tushunchalar va harakat usullarini o'zlashtirish. Bu tushuncha mazmuniga o'qituvchining yangi materialni tushuntirishga oid faoliyati yoki o'quvchining yangi tushunchalar mohiyatini mustaqil yoritishga oid harakati kiradi.

Bularning barchasi muammoli darsning shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Viloyatimiz maktablarida ona tili darslarini kuzatish, bu optimal ta'lim usulining o'qituvchilar ish amaliyotida qanday qo'llanilayotganini aniqlashga harakat qildik. Kuzatilgan 25 soat ona tili darsidan 17 tasida muammoli ta'limni tashkil etishga urinish bo'ldi, xolos. Qolgan 8 soat darsda o'qituvchilar, asosan, tushuntirish-namoyish etish metodidan foydalanishdi. Muammoli ta'limni tashkil etishga uringan o'qituvchilarimizning darslarida biz deyarli bir xil xarakterdagi quyidagi tipik nuqsonlarga duch keldik:

1. O'qituvchilar tomonidan yaratilgan «O'quv qiyinchiligi»ning reproduktiv xarakterda ekanligi. Yaratilgan «qiyinchilik» ona tilidan

o'rganilgan o'quv materialini xotirada jonlantirishdan nariga o'tmaydi. Mana, bir dars namunasi: «O'qituvchi «His-hayajon gap» mavzusini o'tayotganda darslik talabidan kelib chiqib, avval berilgan gaplarni kuchli ohang bilan o'qitdi; bu gaplar so'zlovchining his-hayajonini bildirishini qayd qildi. O'quvchilar diqqati his-hayajon gaplarning ta'rifiga, ularning og'zaki nutq va yozuvda qanday ifodalanishiga qaratildi. O'quvchilar 67-mashqni o'qib, his-hayajon gaplarni ko'rsatishdi. 68-mashq talabiga muvofiq yana his-hayajon gaplarni kuchli ohang bilan o'qishdi. O'quvchilar 69-mashqni bajarishdi. Ular tushirib qoldirilgan harflarni va tinish belgilarini qo'yib gaplarni ko'chirishdi.

SHubhasiz, o'quvchilar bu mashqni bajarishda ayrim qiyinchiliklarga duch keladilar. Ammo bu qiyinchiliklar reproduktiv faoliyatga asoslangan qiyinchiliklardir. CHunki ular, asosan, namunaga qarab bajariladigan topshiriqlardir. Bu mashqlarni bajarishda o'quvchilarning izlanishi, ijodiy faoliyat ko'rsatishi, murakkab aqliy faoliyat usullarini ishga solish uchun hech qanday ehtiyoj yo'q.

2. Ba'zan ona tilidan beriladigan muammoli topshiriqlar anchag'na murakkab bo'lib, o'quvchilarning bilim saviyasi va real o'quv imkoniyatlariga muvofiq kelmaydi. Natijada bu topshiriq o'quvchilarning qiziqishlarini so'ndiradi va uni zeriktiradi.

3. Ko'pincha ona tili o'qituvchilari muammoli ta'limni muayyan bir sistemada tashkil eta olmaydilar. Ba'zan muammoli vaziyat yaratiladi, ammo o'quvchilarning fikrlash faoliyati to'g'ri uyushtirilmay qoladi. Ba'zan esa o'quvchilar mustaqil fikrlaydilar, ammo uning natijasini tekshirishga yetarli e'tibor berilmaydi.

4. Muammoli ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishga uringan o'qituvchilarning ko'pchilik qismi ko'zda tutilgap til materialini o'tishga ulgurishmaydi. Buning asosiy sababi muammoli o'quv topshiriqlarini bajarish uchun ajratilgan vaqt va o'quvchilarning o'quv imkoniyatlarini hisobga olmaslikdir.

5. Ona tili darslarida o'qituvchilar ko'pincha amaliy yo'nalishdagi muammoli topshiriqlardan foydalanishadi. Nazariy va ayniqsa, badiiy xarakterdagi muammoli topshiriqlar esa e'tibordan chetda qoladi. Nazariy bilimlarni berishda o'qituvchi, asosan, tushuntirish-namoyish etish metodidan foydalanadi.

6. Muammoli ta'limni tashkil etishda ba'zan sinf o'quvchilarining bilim saviyasi, mustaqil ishlash darajasi va individual xususiyatlari hisobga olinmaydi. Natijada o'kituvchi muammoli ta'limdan ko'zlangan maqsadga to'la erisholmay qoladn.

Bunday tipik nuqsonlarning asosiy sababi nimada? Bizningcha, buning asosiy sabablaridan biri o'zbek tili o'qitish metodikasida muammoli ta'lim masalalarinnng yetarli ishlanmaganligidir. O'zbek tili o'kitishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, muammoli ta'limpi tashkil etishning nlmiiy-metodik asoslari ishlab chiqilsagina, ona tili o'qituvchilari ish amaliyotidan keng o'rin oladi. Hozircha o'zbek tili o'kitish metodikasida mavjud bo'lgan metodik ko'llanmalarda bu masala yetarli darajada o'z ifodasini topgan emas.

2.2. Muammoli ta'lim natijasida o'quvchilar bilimining shakllanish darajasi tahlili.

Ma'lumki, ta'lim tizimida ona tili o'qitishning ahamiyati beqiyos. Ona tili ta'limi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash faoliyatlarini rivojlantirishga, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, atrofdagilar bilan erkin muloqotda bo'la olish malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ona tili maktabda oddiygina o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayonidir. Shu bois, ona tili darslarini turli ta'lim metodlaridan foydalangan holda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ana shu metodlar ichida muammoli ta'lim alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, muammoli ta'lim o'quvchilarni mushohadaga chorlaydi.

Biz bugungi kunda boshlang'ich sinf ona tili darslarida muammoli ta'limni qo'llash natijasida o'quvchilar bilimining shakllanish darajasi qay holatda ekanligini bilish maqsadida bir qator ishlarni amalgam oshirdik.

Bunda Andijon tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 36-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili darslarini kuzatish va tahlil qilish orqali aniqladik. Masalan, mazkur maktabning 3-sinflarida 1 soatlik ona tili darsini tashkil qilish jarayoni bilan tanishdik.

Mavzu: Ot haqida tushuncha (darsning kirish, o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat qismlari berilmayapti).

Mavzu 190-mashqni bajarish orqali tushuntiriladi. Mashqda berilgan so'zlar o'quvchilarga o'qitiladi. So'zlarning har biriga so'roq berib, nimani anglatishi aniqlanadi.

- Birinchi so'zni o'qing. (*televizor*)
- *Televizor* so'ziga so'roq bering. (*nima?*)
- *Nima?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar nimani bildiradi? (*narsalarni bildiradi*).
- Ikkinchi so'zni o'qing. (*bola*)
- *Bola* so'ziga so'roq bering. (*kim?*)
- *Kim?* so'rog'iga javob bo'lgan so'z nimani bildiradi? (*shaxsni*).
- Shaxs o'zi kim? (*odam, inson, kishilar*)
- Endi mashqdagi *nima?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni o'qing. (*kitob, parta, doska, javon, daftar, ruchka, eshik, qalam*)
- *Kim?* So'rog'iga qaysi so'zlar javob bo'lmoqda? (*o'quvchi, chegarachi, ishchi, shifokor*).

Yuqorida o'qituvchi bergan har bir savol muammoli vaziyatni yaratadi. O'quvchilarning ko'pchiligi kitobdagi mashqdan kerakli javobni tezlik bilan topib, aytdilar. Lekinayrim o'quvchilar bu savollarga javob topa olmadilar. Shunday bo'lsa-da, javob topa olmagan o'quvchilar yechim qaysi ekanligini, ya'ni savolning javobini anglab yetdilar. Bundan

ko'rinadiki, muammoli ta'lim o'quvchilarning bilim doirasi kengayishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Demak, o'qituvchilar bugungi kunda ta'limning muammoli turidan o'rinli foydalanmoqdalar.


Biz ishimizning davomi sifatida mazkur maktabning 3-^a sinf o'quvchilaridan ona tili fanidan test savollariga javob olish orqali ularning bilim darajasini tekshirib ko'rdik.

(Ilovada keltirilgan)

Ushbu test savollariga 3-^a sinfning 28 nafar o'quvchilari javob berdilar. Test natijalariga ko'ra o'quvchilarning 20 nafari to'g'ri, aniq javob berganlar. Qolgan 8 nafar o'quvchi esa to'liq javob bermagan.

Bundan tashqari, biz mazkur maktabning 3-^a va 3-^b sinflarida insho olish orqali o'quvchilar bilim darajasini aniqladik.

Insholarni tekshirganimizda natija quyidagicha bo'ldi.



Diagrammalardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning ona tili fanidan bilim darajalari qoniqarli darajada.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, har bir dars uchun ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, ya'ni bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan uchyoqlama maqsadlar belgilab qo'yiladi. Mashg'ulotni tashkil qilish hsakli unda qatnashuvchilarning psixologik, yosh xususiyatlariga, o'quv material hajmi va mazmuniga, ta'lim usullari va bolalarning imkoniyat darajalariga qarab loyihalashtiriladi.

Agar o'qituvchining tayyorgarligi, ya'ni uning bilimdonligi hamda pedagogic mahorati doimo talab darajasida hamda o'quvchining qiziqishi, diqqatini jamlashi va eslab qolishi doimo yuqori darajada bo'lganda edi, ta'lim-tarbiya jarayonida istalgan usuldan foydalanganda ham yuqori natijaga erishish mumkin edi.

Lekin bu ko'rsatkichlar tez o'zgaruvchan bo'lib, pedagogic jarayonni ana shu o'zgarishlarni hisobga olgan holda olib boorish eng zarur shartlardan hisoblanadi. Aks holda ta'lim-tarbiya jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonining turli shakl va usullari qadimdan paydo bo'lgan va hozirgacha takomillashtirib kelinmoqda. Bu shakl va usullarning har biri yuqorida aytilgan yagona asosiy maqsadga intilgani holda, aslida esa uni ko'zda tutilganga nisbatan kamroq darajada, ya'ni ma'lum bir yo'nalishda hamda mavjud imkoniyatlarga muvofiq darajada bajarishga erishilmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, muammoli ta'limnatijasida o'quvchilar bilimining shakllanishi darajasi talabga javob bermoqda.

II-bob bo'yicha xulosalar

1. Muammoli ta'limni qo'llash sohasida viloyatimizning ilg'or boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan ko'pchiligi muayyan darajada ish olib borishyapti, ularning ayrimlari mashg'ulotlarda bu usulni qo'llash orqali yutuqlarga erishmoqdalar.

2. Usulni qo'llashda ayrim o'qituvchilar belgilangan tamoyillarga e'tibor bermaganliklari uchun o'quvchilarda mavhum grammatik tushunchalarni shakllantirisha olmayaptilar.

3. Yuqoridagilarni hisobga olib shuni ta'kidlashimiz o'rinliki, muammoli ta'lim masalasida maktablarda ko'rgazmali seminarlar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

III-bob. Ona tili darslarida muammoli ta'limni qo'llash tajribalari.

3.1. So'z turkumlari ustida ishlashda muammoli ta'limni qo'llash tajribasi.

Dars tayyorlash hatto tajribali o'qituvchilar uchun ham murakkab ish sanaladi. Huddi ana shu ishda uning ijodiy laboratoriyalari namoyon bo'ladi. Muammoli darsni tayyorlashda o'qituvchi qanday qiyinchiliklarga duch keladi? Bu qiyinchiliklar o'qituvchi va uning o'quvchilarining qandayligiga qarab ko'p-oz bo'lishi mumkin. Eng xarakterli bo'lgan qiyinchiliklarning to'rttasini keltiramiz.

Birinci qiyinchilik o'quv materialini o'zlashtirishgina emas balki o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyatlarini ularning aqliy rivojlanishi jarayonini boshqarishni ham ta'minlaydigan darsni va ta'lim metodlarini tashkil qilishni izlash bilan bog'liq. Bunda asosiy qiyinchilik bosqichlar bo'yicha javob axboroti olishdan iborat.

Ikkinchi qiyinchilik muammoli vaziyatlar tiplarini aniqlash hamda ularni sinf va ayrim guruh o'quvchilari uchun hosil qilishning usul va yo'llarini topishdan iborat.

Bu qiyinchilik o'qituvchida muammoli savollar masala va topshiriqlarni ta'riflash, ko'nikma va malakalarining mavjud bo'lmasligidan kelib chiqadi.

Uchinchi qiyinchilik shu bilan bog'liqki, unda o'qituvchi u yoki bu o'quvchining yangi tushuncha va harakat usullarini mustaqil o'zlashtirish jarayonini individuallashtirishning muqarrarligiga duch keladi.

Chunki ularning har biri muammo va uni yechish.

To'rtinchi qiyinchilik o'qituvchining o'quvchilarida darsga qiziqishini uyg'otish ularda emotsional kayfiyat yaratishning yangi usullarini muttasil ravishda izlashi bilan bog'liq.

Muammoli darsni tayyorlash ikkita o'zaro bog'langan tomonga ega mashg'ulot mazmunini ya'ni nimaga o'rgatish hamda uni o'zlashtirish jarayonini, ya'ni qanday o'qitish va o'qish ko'nikmasini singdirish kerakligini tayyorlash albatta ta'lim nazariyasida bu masalalarga ilgari ham ko'p ahamiyt berilgan. Ilg'or pedagogik tajribalarda dars tayyorlashning ko'rsatilgan shartlarini ta'minlaydigan va muammoli darsga qo'yiladigan talablarga rioya qiluvchi muntazam ravishda muammoli vaziyatlar yaratishni nazarda tutuvchi va o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qiluvchi o'qituvchilargina yaxshi natijalarga erishadi. Ular o'quv materialini tahlil qilishda mazkur fanni birinchi navbatda asosiy hamda ikkinchi darajali tushunchalarga ajratadilar. Dars tizimi va darsni shunday tashkillashtiradilarki, eng qiyin tushunchalar ham o'quvchilar uchun tushunarli bo'ladi. Bu tushunchalar mohiyatini ochishga ko'proq vaqt ajratadilar. Ularni mustahkamlash uchun ko'proq mashq o'tkazadilar.

Tadqiqotning ko'rsatishicha mashg'ulotlarga tayyorlanishning ilmiy asoslangan tizimi hamda o'quv materialining mashg'ulotlar uchun rejalashtirilishi

a) o'quv material;

b) Ta'lim jarayonini rejalashtirish hamda didaktik sharoitlar yaratishni o'z ichiga oladi.

Mashg'ulotga material tayyorlash zamonaviy o'quv-tarbiya jarayoni va muammoli darsga bo'lgan talablarni belgilab beradi.

Tajriba ko'rsatadiki modomiki "Mazmun-metodlar sistemasida birinchi element yetakchi sanalar ekan darsga ilmiy asoslangan holda tayyorlik ko'rishning o'rganilishi tadqiq etiladigan bilimlar sistemasining chuqur va har tomonlama tahlili bilan boshlanishi kerak.

O'quv materialining tushunchali tahlili ya'ni mazmundagi asosiy maqsadga muvofiqdir.¹

a) tushunchali tahlil;

b) mantiqiy tahlil;

c) psixologik tahlil.

O'quv materialining tushunchali tahlili ya'ni mazmundagi asosiy tamoyillar, qonunlar tushuncha va dalillarni ajratish didaktik maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash o'qitishning usul hamda metodlarini tanlash uchun zarurdir. Yangi material bilan aloqasini tiklaydi hamda didaktik maqsad qo'yadi; majburiy va axborot xarakteridagi materiallarni farqlaydi o'quvchilarning o'zlashtirish zarur bo'lgan tushunchalarni ajratadi asosiy va ikkinchi darajalilarga bo'ladi ularning murakkablik darajalarini qayd etadi.

Tahlil va eslab qolish uchun faktlarni ajratadi.

Yangi tushunchalar mohiyatini yechish yo'llarini belgilab berib bilimlar tizimini aniqlaydi.

Nimalar ijodiy nimalar reproduktiv o'zlashtirilishi kerakligini konkretlashtiradi o'quvchilar bilimlarni mustaqil o'zlashtirilishi mumkinligiga asoslanib tushunchalarning o'zaro aloqasini ochib beradi.

Ilgari o'zlashtirilganlaridan nimalarni chuqurlashtirish va mustahkamlash zarurligi tushuncha va harakat usullaridan qaysilari darsda rivojlantirilishi kerakligini aniqlaydi.

Xulosalar, ta'riflar, teoremlar, qonunlar va shu kabilarning tavsiflash variantlarini tayyorlaydi.

Tushunchalarni navbatdagi darslar sistemasida o'rganish uchun ajratadi ularning mazkur dars tushunchalari bilan aloqasini aniqlaydi. O'quv materialining bunday tahlili o'quvchilar nimani bilish, nimani takrorlashi va nimani o'rganishi kerak degan savollarga javob beradi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonini to'g'ri tashkil etish uchun tushunchali tahlildan tashqari tushunchalar kiritish izchilligini shunday o'rnatish kerakki u muammoli ta'lim talablariga javob bera olsun. Ya'ni bunda mantiqiy tahlil zarur. O'qituvchi yangi bilimlarni bayon qilish jarayonida tushunchalar, mulohazalar, induktiv va deduktiv xulosalardan foydalanadi ikkinchi tomondan esa muammoli ta'limning maqsadi o'quvchilarni mustaqil fikrlash bilan qurollantirish ya'ni mantiqiy

usullar va formalar bilan ish ko'radi. Modomiki elementlari ma'lum izchillikda o'zaro bog'langan har qanday bilimda tizim bor bunday holda muammoli ta'limni tashkil qilishda o'quvchiga o'quv topshirig'ini qanday izchillikda berish yoki daliliy materiallarni bayon qilish masalasi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'qituvchi o'quv materialini tashunchali mantiqiy va psixologik jihatdan tahlil qilish jarayonida olingan natijalardan kelib chiqib pedagogik bashorat nuqtai nazaridan darsning didaktik maqsadini aniqlaydi va shakllantiradi o'quvchilar qanday tushunchalarni o'zlashtirishi va qanday harakat usullarini shakllantirishi kerakligini belgilaydi. O'quvchi va o'qituvchining dars bosqichlari bo'yicha didaktik masalalar va faoliyat turlari aniq belgilanadi.

Materialning hajmini belgilaydi zarur bo'lganda darslik materialini to'ldiradi mantiqiy o'zaro bog'langan qismlarga ajratadi va vaqtini belgilaydi.

So'z turkumlari ustida ishlashda muammoli ta'limni qo'llash tajribalari.

Grammatika o'qitishda ya'ni grammatik tushunchalarni o'rgatishning turli xil usullari va turlari bo'lib, ulardan eng samaralisini tanlab uni ta'lim tizimiga qo'llash yaxshi natijaga olib keladi.

Grammatik tushuncha bu boshlang'ich sinflarda hajmdor va murakkabligi bilan ajralib turadi.

“Grammatik tushuncha – narsa va hodisalar, ularning belgilari, harakati, soni aks ettirilgan tafakkur shakli.”²

O'quvchida grammatik tushuncha haqida fikr yuritish uchun quyidagi qobiliyatlar shakllantiriladi.

So'zga so'roq berish.

Umumlashtirish.

Mavhumlashtirish.

Xulosa chiqarish.

Tushunchaning asosiy xususiyatlarini umumlashtirish sinfdan-sinfga o'tishda murakkablashtirish boradi.

Masalan, ot so'z turkumi ustida ishlashda I-II sinflarda faqat narsa va shaxslar nomini bildirib, kim? nima? So'rog'iga javob bo'lgan so'zlar III sinfdan esa otlar narsa va shaxslar nomini bildirishi, birlik va ko'plikda ishlatilishi yasalishi IV sinfdan egalik va kishilik qo'shimchalarini olishi umumlashtiriladi.

Grammatik tushunchani o'zlashtirilishi o'quvchiga juda qiyin jarayon hisoblanadi.

Shuning uchun quyidagi jarayonlarni mukammal o'zlashtirish talab etiladi.

¹ Yunusov Q. Ona tili darslarida zamonaviy pedagogic texnologiya. “Andijon” – 2006. 11-bet.

² Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T. :O'qituvchi”. 114-bet.

So'zlarni tarkibi bo'yicha tahlil qilish so'zlarga so'roq berishni bilish so'zlarni bir-biriga taqqoslashni bilish.

“Grammatik tushuncha ustida ishlash shartli ravishda 4 bosqichda olib boriladi.”¹

Birinchi bosqich – til materialni tahlil qilish. Bu asosan suhbat bilan olib boriladi. Har bir mavzu bayonidan so'ng mashqlar berilgan. Ana shu mashqlar shartiga binoan bajarilib o'quvchilar mashqni bajarishda qanday vazifani bajarilgani yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Suhbatda quyidagi ishlarga ahamiyat beriladi.

Tushunchaning muhim belgilarini ajratish so'zning yoki gap bo'lagining lug'aviy ma'nosi bilan grammatik ma'nosini izohlash.

Grammatik tushunchani tasavvur qilishga tayyorlanish bunda asosan muammoli vaziyat yaratish va mavzuni yetkazib berish asosiy o'rin tutadi.

Suhbat davomida savollarni muammoli tarzda tashkillashtirish zarur.

Savollar birin-ketinlikda beriladi muammoli vaziyat yaratiladi.

1. Bemorni davolovchi shaxs? (Shifikor)
2. Shifokor so'zi nimani bildiradi? (Shaxsni)
3. Yoqyapti so'zi nimani bildiradi? (Harakatni)
4. Harakatni bildiruvchi so'zlarni ayting.
5. Qushlar so'zi nimani bildiradi? (Narsa)

Ikkinchi bosqich – tushuncha belgilarini umumlashtirish.

Bu bosqichda tushunchaning belgilari suhbat yordamida umumlashtiriladi. Mazkur bosqichda quyidagi vazifalar bajariladi.

Grammatik tushunchani avvalgi tushunchadan farqli tomonini izohlash.

Tushunchaning belgilarini umumlashtirish faqat suhbat yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bolalar, narsa va shaxsning nomini so'zlar qanday so'roqqa javob bo'ladi (Kim? Nima?).

Izlaydi so'zichi? (Nima qildi?)

Davoladi deganimizda kimning harakatini tushunamiz?

Shifokor kim? (Shaxs)

Izlaydi deganimizda nimaning harakatini tushunamiz? (Qushlarning)

Qushlar nima? (Narsa)

Demak narsa va shaxslarning harakatini bildiradigan so'zlar qanday so'roqqa javob bo'lar ekan?

Nima qildi? Nima qilyapti?

Bundan tashqari shaxs yoki narsalarning nomini aytib ularning harakatlarini mosini to'g'risiga yozdirish.

Xo'roz qichqiradi.

Chaqaloq yig'laydi.

Uchinchi bosqich – tushuncha ta'rifi ustida ishlash.

Muammoli savollar va vaziyatdan kelib chiqqan holatda tushuncha atamasi va qoidasi ustida ishlanib quyidagi vazifalarni amalga oshiriladi.

Tushuncha ta'rifini aytish.

Qoidani izohlash.

Qoidani ta'kidlash.

Tushuncha ta'rifi ustida ishlashni yuqorida "Fe'l" mavzusi misolida izohlaymiz.

Demak bolalar, narsa va shaxslar turli harakatlarni bajarar ekan.

Masalan, suv nima qilishi mumkin?

Oqadi, to'xtaydi, isiydi, qaynaydi, soviydi, to'ladi, to'kiladi, tomchilaydi.

O'quvchi nima qiladi?

O'qiydi, yozadi, o'ynaydi.

Demak, shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlar "Fe'l" deyiladi. Fe'llar nima qiladi?

Nima qilyapti so'roqlariga javob bo'ladi.

Undan so'ng yuqoridagi qoida ta'kidlanadi.

Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlar nima deyiladi?

Fe'llar nima va kimlarning harakatini bildiradi? (Narsa va shaxs)

To'rtinchi bosqich – tushunchani mustahkamlash.

Tushunchani mustahkamlashda darslikdagi mashqlar tarqatma varaqalar, diktant, bayon va insho ham turli ta'limiy o'yinlardan foydalaniladi.

Bunda agar hoxlasak muammoli o'yinlardan foydalanishimiz mumkin. Bunda nafaqat mavzuni yetkazish osonlashadi, mantiqiy tafakkur ham o'sadi.

Grammatik tushunchalarni mustahkamlash mashqlari.

Ma'lumki, yuqorida ta'kidlaganimizdek til hodisalari boshqa tabiiy hodisalarga nisbatan mavhumligi va murakkabliligi bilan farqlanib turadi.

Grammatik tushunchalar so'z, so'z birikmasi muhim belgilarini mavhumlashtirish va umumlashtirish natijalaridir.

Grammatik tushuncha mavhum tushuncha bo'lganligi uchun ham uni o'zlashtirish qiyinchilik bilan amalgam oshadi. Zero, o'quvchida bu tushuncha mukammal shakllanmasa imloviy va nutqiy malaka ham hosil bo'lmaydi.

¹ Yunusov Q. Grammatika o'qitish metodikasi. "Lider-press". T. 2009. 8-bet

Shuning uchun har bir soʻz turkumining ustida ish olib borayotgan vaqtda oʻquvchilar oldiga tegishli muammoni qoʻya olish kerak.

Fikrimizning isboti sifatida biz 3-sinfda ot soʻz turkumi ustida ishlashni koʻrib oʻtaylik.

Oʻquvchilar 2-sinfda soʻz turumlari haqida boshlangʻich maʼlumotni olganlar.

Ular kim? nima? Soʻrogʻiga javob bolgan soʻzlar shaxs-narsaning tushunchasini bildirishi haqida amaliy koʻnikma hosil qilganlar. Endi oʻquvchilarda shaxs-narsa tushunchasi bilan bogʻliq otning leksik va Grammatik shakllantirish vazifasi turibdi. Shu bilan birga oʻquvchilarning atoqli otlarning bosh harf bilan bogʻliq otning leksik va Grammatik belgilarini shakllantirish vazifasi turibdi. Koʻrinib turibdiki, soʻz turkumi koʻlami doirasidan ham keng va murakkab, lekin soʻz turkumi haqida boshlangʻich maʼlumot berilgani haqida oʻylasak, soʻz turkumini oʻtayotgan mahalda muammoli vaziyat yaratishimiz mumkin va muammoli savollar berib oʻquvchilarning mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirishimiz mumkin.

Aqliy hujum

Dars mavzusiga oid qoʻyilgan muammoni yechish yoki savolga javob topish maqsadida gʻoyalarni jamlash va saralash usuli. qatnashchilar birlashgan holda yechimi nomaʼlum muammoni yechishga yoki savolga javob topishga harakat qiladilar. Eng maqbul yechimni topish boʻyicha shaxsiy gʻoyalarini ilgari suradilar. Bosqichlari: muammoli vaziyatni keltirib chiqarish; uning yechimini topish uchun oʻquvchilarni jalb qilish; turli yechimlar taqdimotini eshitish; yechimlarni solishtirish va tanlash; xulosalash;

Pinbord usuli

Bu usul aqliy hujum metodining bir koʻrinishi boʻlib, unda qoʻyilgan muammoni hal qilish boʻyicha gʻoyalar alohida qogʻozchalarda yozilib, doskaga mixlanib boriladi. Ikkinchi bosqichda esa, ular turli mezonlar boʻyicha sinflarga boʻlinadi, saralanadi va muayyan tartibda doskada joylashtiriladi.¹

Misol uchun: yangi mavzu bayoni qismida aqliy hujum sifatida muammoli savollar beramiz.

1. Bolalar “Oynai jahon” sizningcha nima?
2. Hoʻsh, agar bu shunday narsa boʻlsa (...) u qanday soʻroqqa javob boʻladi?
3. Shu soʻroqqa javob boʻluvchi yana qanday soʻzlarni bilasiz?
4. Bu aytgan soʻzlaringiz koʻplikdami yoki birlikdami?
5. Bu soʻzlar nimani anglatishini aytib bering.
6. Shu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.
7. Tuzgan gaplaringizdan otlarni aniqlang.

¹ <http://www.multimedia.uz/uzb/article76.html>

Ko'rinib turibdiki, muammoli savollar zamirida muammoli vaziyat yaratildi. Muammoli savollarning oddiy savol-javobdan farqi ham shundaki, birinchi savolning javobini topmay turib ikkinchi va undan keyingi savollarga javob topa olmaydi. Demak savollar bir-biriga zanjir shodalari kabi bog'langan.

Buning yechimi esa muammoli vaziyatning yechimi shu barobarida o'tilayotgan mavzuni ham ochib beradi.

Navbatdagi savollar ham shu mavzuga oid.

1. Havas so'ziga so'roq bering.
2. Havaskor so'ziga so'roq bering

Bu so'zlar nimani anglatadi.

Bu so'zlar o'rtasidagi farq qayerda va bu farqning kelib chiqish sababi nima?

Har qanday muammoni yechish uni to'g'ri va aniq ifodalashdan boshlanadi. Muammolarni ifodalash jarayoni shuni anglatadiki, o'quvchi oldida paydo bo'lgan masalani tushunadi va uni yechish yo'lini izlaydi.

Muammoli ta'limni tashkil qilishda muammolarni yechishdagi o'quvchilarning faoliyati birinchi navbatda bizni qiziqtiradi. Ana shu nuqtai nazardan muammoni qanday yechilishini kuzatish bu asosiy o'rinni egallaydi.

Bu metod mazmunidan qat'iy nazar har qanday muammoni yechish asosida yotgan umumiy narsani bilishga imkon beradi.

Bu bosqichlarni bajarish davomida masalani yechiladiganlar quyidagi savollarga javob berishi kerak.

Nima noma'lum?

Nima berilgan?

Shartlari nimadan iborat?

Noma'lumni aniqlash shartlari yetarlimi yoki yetarli emasmi?

Shunga o'xshash vaziyat oldin ham takrorlanganmi? Agar takrorlangan bo'lsa u qanday vaziyatda yechim topgan?

Muammoni afodalab yoki o'qituvchi bergan muammoni qanday ifodalashni tushunib olgach o'quvchilar uni hal qilishni izlay boshlaydilar.

Muammoli yechish jarayonining muhim belgisi muammoli vaziyat hosil qiladigan elementlarning belgi va xossalari haqida axborotlar yig'ish sanaladi. Boshqacha so'z bilan aytganda o'quvchi qayta izlanishni yangi bilimlarni o'zlashtirishni tashkil etadigan yangi bilimlarni o'zlashtirishni tashkil etadigan yangi dalil va ma'lumotlarni yig'adi.

Shunday qilib o'quv muammosining yechish mantiqi ham uni yechish chizmasi ham yechish rejasini tuzish zarurligini ko'rsatadi.

Muammolar yechish rejasini tuzish asosida analitik yoki evristik tamoyilni yoki har ikkisining qo'shilmasi yotadi.

Dastlabki g'oyani tahminiyl yechish yo'lini olg'a surish muammoni yechishning boshlang'ich bosqichi sanaladi. Odatda o'quvchi paydo bo'lgan bilim va shaxsiy tajriba asosida darrov topishga urinadi. Bunga erisha olmasa yechish rejasini o'ylay boshlaydi.

Yechish rejasini tuzish o'quvchining keyin keladigan narsani oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga bog'liq. Yechish natijasini o'zicha hira tasavvur qilgan holda u muammoni yechish tajribasi asosida umuman fikrlash asosida o'zining izchil harakatlarini yozib borib fikran ilgari ketadi.

Bunday ilgari ketishning yakunida yechish g'oyasi va bu g'oyani asoslaydigan tamoyil to'g'risida taxminlar paydo bo'ladi.

Muammolar yechishning to'g'riligini tekshirish maqsadlarini taqqoslash masalalar va olingan xulosani talab qilish kabi harakatlardan iborat bo'ladi.

Har bir o'quvchi o'tilganlarni qandaydir esga tushirmog'I ham muammoning boshqa yanada ravshan va aniq ifodasi uni yechishning o'zlashtirilgan usullarini o'rgatish lozim.

So'z turkumlari ustida ish olib borilgandan so'ng gap va gap bo'laklari ustida ishlash asosiy o'rinni tutadi.

So'z turkumlarini mukammal o'rganmay turib gap bo'laklarini to'laqonli o'rganib bo'lmaydi. Demak morfologiyani o'rgangandan so'nggina sintaksisni o'rganish bu ham tizimlilik va uzluksizlikni ta'minlaydi.

Gap ustida ishlashda muammoli ta'lim ham o'ziga xos yo'nalish bo'lib, gap bo'laklari ularning vazifalari, so'roqlari, ancha murakkab bo'lib bunda muammoli vaziyatni yaratish shart emas. Mavzu murakkab bo'lib lekin muammoli suhbat asosida bu mavzuni ochib berish mumkin. "Bu mavzuning asosiy o'rganish ob'yekti so'z birikmasi, gap, matndir."¹

Yangi mavzuni yoritish

- yangi mavzuni kichik-kichik bo'lakchalarga bo'lib berish;
- rang-barang misollar imkoni boricha ko'rgazmali taqdim qilish;
- mavzudan chetlashmaslik;
- materialning murakkab tomonlarini qayta tushuntirish;
- o'quvchilarning tushunganlik darajasini tekshirib borish;
- teskari aloqani ta'minlash.²

¹ To'xtaboyev va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T. "Yangi asr avlodi". 2006. 143-bet.

² <http://www.multimedia.uz/uzb/info/usl/techno>

Boshlang'ich sinflarda 1-sinfdanoq gap nimadaliği o'rgatılmasada lekim shu haqida boshlang'ich ma'lumot berib boriladi. 2-3 sinflarda gap va gap bo'laklari haqida, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari haqida ma'lumot beriladi.


Gap bo'laklari ustida ishlashda ham muammoli ta'limni qo'llash tajribasi bo'lib ular o'ziga xos natijaga erishilgan.

Masalan:

1. Gapning bosh bo'laklari qaysilar?
2. Men maktabga bordim. Gapidagi ega va kesimni aniqlang, tagiga chizing.
3. Men keldim.

Yuqoridagi gapni ikkinchi darajali bo'laklar bilan to'ldiring.

Gap bo'laklari ustida ishlashda kesimni oladigan bo'lsak muammoli chizma asosida muammoli vaziyat yaratish tajribasini olishimiz mumkin.



Bu chizmani kattalashtirilgan nusxada foydalanishimiz mumkin.

Bundan tashqari gap tuzish mashqlarini ham muammoli tarzda quyidagicha olib boorish mumkin.

- a) tushirib qoldirilgan so'zni o'rniga qo'yib gapni ko'chirish.
- b) So'roqlar o'rniga mos so'zlarni qo'yib gaplarni ko'chirish.
- c) Berilgan so'z ishtirokida gap tuzish.
- d) Rasm asosida gap tuzish.
- e) Mavzu asosida gap tuzish.
- f) Yig'iq gapni yoyiqlarga aylantirish.
- g) Uzilgan gapni davom ettirish.

Matn tuzishga o'rgatishda ham yuqoridagi savollarga javob olgan tarzda amalgam oshiriladi.


Matn tarkibidan savollar berib ham o'quvchilarning bilimini oshirish mumkin.

Gap bo'laklari ustida ishlashda muammoli ta'limni qo'llash tajribalari.

Biz tajribalar boshida Andijon tumanidagi 36-umumta'lim maktabining Mirzayeva Barchinoy o'qitayotgan 3-^b sinf va Qambarova Minuraxon o'qitayotgan 3-^a sinf o'quvchilariga tarqatma varaqa topshirig'ini bajartirdik. Topshiriqlarda gap kim yoki nima haqida, kim yoki nima haqida nima deyilmoqda? Kabi so'roqlarga javob bo'lgan so'zlarning ostiga tegishli chiziqlarni chizishni belgilangan edi. Natija quyidagicha bo'ldi:

Sinflar	O'quvchilar soni	Ballar				
		"5"	"4"	"3"	"2"	"1"
3- ^a (nazorat sinfi)	28	4 14%	11 39%	13 47%	-	-
3- ^b (tajriba sinfi)	29	2 7%	10 34%	8 28%	9 31%	-

Jadvalni diagrammaga aylantirsak, quyidagi ma'lumot hosil bo'ladi:



Jadval va diagrammalardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar gap bo'laklari, gapning bosh bo'laklarini talab darajasida belgilay olishmagan. Ayniqsa, bu nuqson tajriba sinflarida katta.

Shundan keyin 3-^b sinfda taqvim reja bo'yicha "Gapning bosh bo'laklari" va "Gapning ikkinchi darajali bo'laklari" mavzularini o'tishda a) yangi mavzu ustida ishlashda, shuningdek, b) mustahkamlovchi mashqlarni o'tkazishda muammoli vaziyatlarning quyidagi shakllarini hosil qilib bordik:

- savollar orqali muammo qo'yish;
- testlar orqali muammo qo'yish;
- rasmlar orqali muammo qo'yish;
- tarqatma varaqalar orqali muammo qo'yish;
- ta'limiy diktantlar orqali muammo qo'yish;
- ta'limiy o'yinlar orqali muammo qo'yish.

O'quv yilidagi 40-darsni o'tishda (Mavzu: "Bosh bo'laklar") quyidagi tartibda savollar orqali muammo qo'yilib borildi:

Darsning borishi.

1. Darsni tashkil etish.

2. Uy vazifasini tekshirish. 102- mashqda berilgan gaplardan bosh bo'laklar ajratib o'qitiladi (onam yopar, yomg'ir yashnaydi, shamol tebratadi, mehmon keldi, odam yaratdi, fazogir ko'tarildi) va ular nima uchun bosh bo'lak bo'la olishini tushuntirib berish talab etiladi.

3. Bosh bo'laklar – ega va kesim haqida tushuncha berish.

103-mashq darslikda berilgan tartibda bajariladi. Matndan birinchi gap o'qiladi. So'ngra bolalar uni daftarga ko'chirib yozadilar. O'qituvchi bolalar diqqatini doskadagi rasm (yerda sochilgan qirindi, katta-kichik taxtalar, stolcha, stulcha, katta stol ustida yog'och randalayotgan bola, uning yonida bir kishi tasvirlangan)ga qaratadi, quyidagi savollar beriladi:

— Rasmda nimalarni ko'ryapsiz?

— Bola nima qilyapti?

— Oldidagi kishi-chi?

— Stolcha, stulchalarni kim yasagan deb o'ylaysiz?

— Bu bola katta boiganda kim bo'ladi?

— Siz qanday kasblarni sevasiz?

— Kelajakda kim bo'lishni orzu qilasiz?

— Haydovchi, shifokor, duradgor, oshpaz, o'qituvchi bo'lish uchun nima qilish kerak?

Bolalarning javoblaridan xulosa chiqariladi: Ha, bolalar, kim bo'lsangiz ham ko'proq o'qishingiz, o'rganishingiz kerak. Men ham kelajakda duradgor bo'lish uchun harakat qilyapman.

O'quvchilar matndagi gaplarni o'qiydilar, savollarga javob beradilar.

Suhbat yordamida o'quvchilar birinchi gap Yamin haqida aytilgani, *Yamin* so'zi kim? so'rog'iga javob bo'lishini, *qatnaydi* so'zi nima qiladi? so'rog'iga javob bo'lishini, ikkinchi gap bolalar haqida aytilgani, *bolalar* so'zi kimlar? so'rog'iga javob bo'lishi, bolalar haqida nima deyilganini bildirishi, *o'rgandilar* so'zi nima qildilar? so'rog'iga javob bo'lishini aniqlaydilar. Suhbatda *Yamin* so'zi qanday so'roqqa javob bo'ladi? Yamin haqida nima deyilgan? *Qiynaydi* so'zi qanday so'roqqa javob bo'ladi? *Bolalar* so'zi-chi? Bolalar haqida aytilgan so'z qaysi? *O'rgandilar* so'zi qanday so'roqqa javob bo'ladi? kabi savollardan foydalaniladi.

O'qituvchi suhbat davomida gaplarni doskaga yozib boradi:

Kim? (Yamin)nima qiladi? (Qatnaydi.)

Kimlar? (Bolalar) nima qiladilar? (O'rganadilar.)

O'qituvchi o'quvchilar javobini umumlishtiradi: Demak, birinchi gap Yamin haqida aytilgan. *Yamin* — gapning egasi. Yamin haqida nima deyilganini bildirgan so'z — *qatnaydi*. *Qatnaydi* — gapning kesimi. Shunday qilib, *Yamin duradgorlik to'garagiga qatnaydi* gapida

Yamin — ega, eganing tagiga bir chiziq chizamiz, qatnaydi — kesim, kesimning tagiga ikki chiziq chizamiz va hokazo.

Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan bo'lagi ega deyiladi. Gapning ega haqida nima deyilganini bildirgan bo'lagi kesim deyiladi. Ega va kesim gapning bosh bo'lagidir. Ular birgalikda gapning asosiy mazmunini bildiradi.

Bolalar bu qoidani darslikdan topib o'qiydilar. Matndagi gaplarni ko'chiradilar. Eganing tagiga bir chiziq, kesimning tagiga ikki chiziq chizadilar.

4. So'roqlarga mos so'zlar tanlash.

104-mashq. Mashq avval og'zaki, so'ngra doskada va o'quvchilarning daftarlarida yozma bajariladi:

O'quvchilardan biri doskaga chiqib, mashqdagi birinchi gapni o'qiydi. Mashq ostida berilgan so'zlardan so'roqqa va gapning mazmuniga mos so'zni tanlab, u so'zni so'roq so'zdan keyinga qo'yib, gapni o'qiydi va uni doskaga yozadi. Gapdagi kim yoki nima haqida aytilgan so'zning tagiga bir chiziq chizadi (Kim?). *Havdovchi mashinani yurgizdi.*

Boshqa o'quvchilar ham mashqdagi gaplarni shu taxlitda yozadilar.

Keyingi darslar ham, shuningdek "Gapda so'zlarning bog'lanishi" mavzusi (49-50-darslar) ham muammoli vaziyatlar asosida tashkil qilinadi:

Mavzu: gapda so'zlarning bog'lanishi.

Darsning maqsadi: o'quvchilarning ikkinchi darajali bo'laklar haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Gapda so'zlarning bog'lanishi haqida tushuncha berish. Gapda so'zlarning ma'no jihatdan bog'lanishini amaliy ko'rsatish. Gapda ma'no jihatdan bir-biriga bog'langan so'zlarga so'roq berishga o'rgatish. Yig'iq gaplardan yoyiq gaplar tuzishga o'rgatish. Chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning metodi: suhbat va ijodiy ish.

Darsning jihozi: g'o'zapoyadan tozalanayotgan dala va kuzgi shudgorlash ishlarini tasvirlovchi hamda gulzorning ko'rinishini ifodalovchi rasmlar.

Darsning borishi.

1. Uy vazifasining bajarilishini tekshirish.

— 125-mashqda nimalar berilgan? (So'zlar.)

— Ular qanday holatda? (Ular bir-biri bilan bog'lanmagan, tarqoq.)

— So'zlardan nimalar tuziladi? (Gaplar.)

— Birinchi qatorda qanday so'zlar berilgan, ularni o'qing. (*Dalani, g'o'zapoyadan tozaladilar, dehqonlar.*)

— Bu soʻzlardan tuzgan gapingizni oʻqing. (*Dehqonlar dalani gʻoʻzapoyadan tozaladilar.*)

— Gapda qanday boʻlaklar bor? (Bosh va ikkinchi darajali boʻlaklar bor.)

— Gapdagi bosh boʻlaklarni oʻqing. (*Dehqonlar tozaladilar.*)

— Bosh boʻlaklarni qanday aniqladingiz? (Soʻroqlar orqali.)

— Bosh boʻlaklarga nimalar kiradi? (Ega va kesim.)

— Ularning tagiga qanday chiziq chizdingiz? (Eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki chiziq chizdik.)

— Ikkinchi darajali boʻlaklarni qanday belgiladingiz? (Toʻlqinli chiziqlar bilan.)

Tahlil qilingan gaplardan biri doskada koʻrib chiqiladi: *Dehqonlar dalani gʻoʻzapoyadan tozaladilar.*

Boshqa gaplar ham shunday tahlil qilish bilan tekshiriladi.

2. Husnixat mashqlari.

Husnixat uchun quyidagi gaplar husnixat qoidalariga rioya qilgan holda doskaga yozilgan boʻladi.

Non aziz! Nonni isrof qilmang! Nonning uvogʻi ham non.

Gaplar doskadan oʻqiladi. Soʻngra nonning hayotdagi oʻrni, ahamiyati ochib beriladi. Non haqidagi kichik rivoyatlardan aytib berish ham mumkin. Soʻngra oʻquvchilar gaplarni husnixat qoidalariga rioya qilib yozadilar.

3. Yangi mavzuni bayon etish. Oʻquvchilar diqqati avvaldan doskaga yozib qoʻyilgan gapga (*Kecha oʻquvchilar musobaqada gʻoliblikni qoʻlga kiritdilar*) qaratiladi. Gap bolalardan biriga oʻqitiladi. Gapning bosh boʻlaklari aniqlanadi va doskaga yoziladi. Suhbat yordamida maʼno jihatdan oʻzaro bogʻlangan soʻzlar aniqlanadi.

— K i m 1 a r ? kiritdilar — **oʻquvchilar** kiritdilar.

— Oʻquvchilar nima qildilar? — oʻquvchilar **kiritdilar**.

— Qachon? kiritdilar — **kecha** kiritdilar.

— N i m a d a ? kiritdilar — **musobaqada** kiritdilar.

— N i m a n i ? kiritdilar — **gʻoliblikni** kiritdilar.

— N i m a g a ? kiritdilar — **qoʻlga** kiritdilar. Gapda soʻzlarning boʻgʻlanishi doskaga yozib boriladi.

— Gapda soʻzlar mazmunan bir-biri bilan qanday bogʻlangan? (Mazmunan oʻzaro bogʻlangan.)

— Gapda soʻzlarning bogʻlanishini nimalar yordamida aniqladik? (Savollar yordamida.)

— Gapdagi soʻzlar bir-biri bilan mazmunan bogʻlanmasa nima boʻladi? (Mazmun anglashilmaydi.)

Javoblar umumlashtiriladi: gapda soʻzlar mazmunan oʻzaro bogʻlanadi. Gapda soʻzlarning bogʻlanishi soʻroqlar orqali aniqlanadi.

Qoida darslikdan oʻquvchilarga oʻqitiladi.

Tahlil qilingan gapni oʻquvchilar doskadan koʻchirib yozadilar.

4. Darslik bilan ishlash.

126-mashqdagi matn oʻqiladi. Birinchi gap koʻchirib yoziladi. Mashqning shartiga koʻra, bosh boʻlaklar aniqlanib, tagiga chiziladi. Dastlab ega va kesimga soʻroq beriladi. Soʻngra ega va kesimga bogʻlanib kelayotgan soʻzlarni soʻroqlar orqali aniqlab, namunadagidek yoziladi.

N a m u n a: *Yozda quyosh yerni qattiq qizdiradi.*

Nima qizdiradi? — **quyosh** qizdiradi.

Quyosh nima qiladi? — quyosh **qizdiradi**.

Q a s h o n qizdiradi? — **yozda** qizdiradi.

N i m a n i qizdiradi? — **yerni** qizdiradi.

Q a n d a y qizdiradi ? — **qattiq** qizdiradi.

Ikkinchi gap ham xuddi shunday tahlil qilinadi. Mashqdagi boshqa gaplarda soʻzlarning bogʻlanishi ham shu tartibda yozib chiqiladi.

5. Ijodiy diktant.

Berilgan savollar oʻrniga soʻzlar qoʻyib, bosh boʻlakli gaplarga ikkinchi darajali boʻlaklar qoʻshib, gaplarni kengaytirib yozishi tushuntiriladi.

(Qachon? Nimalardan?) *barglar toʻkiladi.*

(Qayerdagi? Qanday?) *oʻtlar sargʻayadi.*

(Qanday? Qayerdan?) *qushlar keladilar.*

Oʻquvchilarning bajargan ishlari tekshiriladi.

Oʻquvchilar soʻroqlarga tanlagan soʻzlarini soʻroq soʻzlar oʻrniga qoʻyib, gaplarni toʻldirib oʻqiydilar. Gapdagi soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi soʻroqlar orqali aniqlanadi.

Nimalar toʻkildi? — **barglar** toʻkildi.

Barglar nima q i l d i ? — *barglar* **toʻkildi**.

Qachon toʻkildi ? — **kuzda** toʻkildi.

Nimalardan toʻkildi ? — **daraxtlardan** toʻkildi kabi.

6. 127-mashqni bajarish. Mashqning topshiriqlari bilan bajarishda 126-mashqdagi namunadan foydalaniladi.

Gulzorda yengilgina shamol esyapti.

— Gapning egasi qaysi? (*Shamol.*)

— Kesimi-chi? (*Esyapti.*)

— Nima esyapti? (*Shamol esyapti.*)

Kesimga savol bering.

— Shamol nima qilyapti? (*Shamol esyapti.*)

Kesimga qarab ikkinchi darajali bo'laklarga so'roq bering.

Q a u e r d a esyapti? (***Gulzorda esyapti.***)

Qanday shamol? (***Yengilgina shamol.***)

Boshqa gaplardagi so'zlarning bog'lanishi ham ana shunday aniqlanadi.

O'quvchilar matnni ko'chirib, gapdagi ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklarni chiziqlar bilan ko'rsatadilar.

7. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Gapda so'zlar bir-biri bilan qanday bo'g'lanadi?

— Gapda so'zlarning bog'lanishini nimalar orqali aniqlaymiz?

— Gapda qanday bo'laklar bo'ladi?

8. Uyga vazifa beriladi.

Shuningdek, topshiriqli va saylanma diktantlar ham qo'llaniladi. 3-“a” sinf o'qituvchisi _____ esa o'z rejasi va ta'limiy vositalari asosida yuqoridagi darslarni o'tdi. Shundan so'ng yana ikkala sinfda ham tarqatma varaqalar vositasida nazorat ishi oldik. Varaqalarda uchtdan gap berilib, o'quvchilar ulardagi ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlash topshirildi. Nazorat ishlarini tekshirganimizda quyidagi natijani oldik:

Sinflar	O'quvchilar soni	Ballar				
		“5”	“4”	“3”	“2”	“1”
3-“a” (nazorat sinfi)	28	1 4%	3 11%	17 61%	7 24%	-
3-“b” (tajriba sinfi)	29	8 28%	19 65%	2 7%	-	-

Yuqoridagi jadvalni diagramma shakliga aylantirsak, quyidagi natija hosil bo'ldi:





Diagramma va jadvallardan ko'rinib turibdiki, muammoli ta'lim natijasida tajriba sinflarida sifat ko'rsatkichi 97% ga ko'tarilgan.

Xulosa:

1. Bu metod o'qituvchi va o'quvchining mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishi uchun real o'quv imkoniyat yaratadi. O'qituvchining faolligi muammoli vaziyatni to'g'ri yaratishda, o'quv muammosi ustida o'quvchilarning faolligini uyushtira bilishda, uning natijasini to'g'ri tashkil eta bilishda namoyon bo'lsa, o'quvchining faolligi muammoning maqsadini to'g'ri anglash, uni yechishda zarur bilimlarni ishga solish, muammoni yechish usullarini to'g'ri belgilash, o'z ishini o'zi nazorat qilish, ishni nihoyasiga yetkazish kabilarda namoyon bo'ladi. O'qituvchi shuni unutmasligi lozimki, agar uning faolligi o'quvchi faolligi bilan qo'shib ketsa, tahlilning samaradorligini tahminlash mumkii.
2. Muammoli yo'l bilan egallangan bilimlar o'quvchining shaxsiy mulkiga aylanadi va u bu bilimlardan yozma va og'zaki nutqda bimalol foydalana oladi. O'quvchi bilimlarni muammoli yo'l bilan qabul qilgan bo'lsa, zaruriyat tug'ilganda uni yangi sharoitda bimalol qo'llay oladi.
3. Muammoli tahlil o'quvchining ichki (fikrlashga asoslangan) va tashqi nutqiga samarali tahsil ko'rsatadi. Tashqi nutqning rivojlanishi ichki nutqning rivojlanishi bilan chambarchas bog'langan.
4. Muammoli tahlil o'quvchilarni til materiallarini kuzatish, uning o'ziga xos xususiyatlarini ajratish, taqqoslash, umumlashtirish kabi logik-lingvistik operatsiyalar bilan qurollantirishga samarali tahsil ko'rsatadi. Bu operatsiyalar bilan qurollangan o'quvchi mustaqil bilim olish malakalariga ega bo'ladi.
5. Muammoli ta'limni qo'llashning xilma-xil variantlari bor. Biz bu variantlarni qo'llash orqali tajriba sinflarida grammatik tushunchalarni shakllantirishda o'zlashtirishning 97% bo'lishiga erishdik.
6. Muammoli ta'lim usulini qo'llashda qo'shimcha turli ta'limiy vositalar, ko'rgazmalilik, ta'limiy o'yinlar, tarqatma varaqalardan foydalanish shartdir.
7. Muammoli ta'lim usulini qo'llash davomida o'quvchilarning fikrlash darajasini muntazam ravishda o'stirib borishga jiddiy e'tibor berish talab etiladi.

Taklif.

1. Muammoli ta'lim tizimini o'quv jarayoniga tadbiq etish bo'yicha maktablarda seminar, treninglar o'tkazish;
2. Muammoli ta'lim tizimini amaliyoti va nazariyasini o'qib o'rganishni tashkil etish.

3. Muammoli ta'lim tizimini amalda qo'llash tajribalarini tahlil etish, umumlashtirish, ommalashtirish bo'yicha tavsiya, qo'llanmalar yaratib, ta'lim muassasalariga yetkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma'naviyat” – 2008.
2. Karimov I. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajak ishonchidir. T., “O'zbekiston” – 2000.
3. Amonashvili SH.A. va b. Pedagogik izlanish. T., “O'qituvchi” – 1990, 608 b.
4. Ashrapova T., Odilova M. Ona tili metodikasi. T., “O'qituvchi” – 1984, 184 b.
5. Davletshin M.G. Ta'limning psixologik asoslari. T., “O'qituvchi” – 1978, 20 b.
6. Madaliev B. Ona tili darslarini samaraligini oshirish. T., “O'qituvchi” – 1969, 84 b.
7. Maxmutov M. Maktabda problemali ta'limni tashkil qilish. T. “O'qituvchi” – 1981, 195 b.
8. Mirzaqulov T. Grammatika o'qitishning lingvistik asoslari. T. “O'qituvchi” – 1994, 56 b.
9. To'raxonova R. Olti yoshli bolalarning psixologik xususiyatlari. T. “O'qituvchi” – 1990, 40 b.
10. Umarova M., Xudoyberganova M. Bayonlar to'plami. T. “O'qituvchi” – 1983, 144 b.
11. Yusupova SH. Noan'anaviy dars – talabi. Andijon – 2002, 54 b.
12. Yunusov Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida imloviy xushyorlikni shakllantirishda tafakkur jarayoni. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. AVXTPMOI – 1994, 59 b.
13. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T. “O'qituvchi” – 1985, 216 b.
14. “Barkamol avlod orzusi”. T., “SHarq” nashriyot-matbaa kontserni. – 1998, 184 b.
15. Boshlang'ich ta'lim fanlar bo'yicha standart tekshiruv ishlari to'plami. T., Ma'rifat-Madadkor – 2002, 416 b.
16. Milliy istiqlol g'oyasi – asosiy tushuncha va tamoyillar. T. “O'zbekiston” – 2000, 80 b.
17. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti. “Boshlang'ich ta'lim” jurnali. 1998, № 6, 32 b.